



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA
KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
QARSHI FILIALI**

***KOMPYUTER INJINIRINGI
fakulteti***

***AXBOROT TEXNOLOGIYALARI
kafedrası***

**Tijorat korxonalari va savdo do'koni dinamik web-saytini yaratish
("Orginal" supermarketi misolida)
mavzusida**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bitiruvchi _____ Hakimov E.

Rahbar _____ Nosirov B.

"Himoyaga ruxsat etildi"
"Axborot texnologiyalari"
kafedrası mudiri _____
i.f.d. X.S.Muxitdinov

"_____ " _____ 2015y.

Himoya uchun DAKga yuborildi:
"Kompyuter injiniring" fakulteti
dekani _____
S.B.Davronov

"_____ " _____ 2015y.

Qarshi 2015

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA
KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI**

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
QARSHI FILIALI**

KOMPYUTER INJINIRINGI

fakulteti

“Informatika va axborot texnologiyalari” ta’lim yo’nalishi

“Tasdiqlayman”

Axborot texnologiyalari kafedrası mudiri

_____ ***i.f.d. X.S.Muxitdinov***

“_____” _____ 2015 yil

Bitiruv malakaviy ish bo'yicha

TOPSHIRIQ

Talaba: *G'aniyev Muhsin*

- 1. Malakaviy ish mavzusi:** *Tijorat korxonalari va savdo do'koni dinamik web-saytini yaratish (“Orginal” supermarketi misolida)*
- 2. TATU Qarshi filialining № 1-15 buyrug'i bilan 2015 yil 16 yanvarda tasdiqlangan.**
- 3. Malakaviy ishni topshirish muddati:** *2015 yil 29 iyun*
- 4. Malakaviy ish uchun ma'lumotlar:** *Denwer, Macromedia Dreamweaver, PHP dasturlari, sohaga tegishli internet materiallari, web dasturlash tillari, web dasturlash bo'yicha o'quv va elektron adabiyotlar.*
- 5. Hisobiy izoh qismining mazmuni (ishlab chiqilishi lozim bo'lgan savollar ro'yxati):** *Web sayt yaratish imkoniyatlari, web sayt yaratish bo'yicha tavsiyalar, Denwer, Macromedia Dreamweaver, PHP va boshqa sayt yaratish dasturlaridan foydalanish bo'yicha xulosa va takliflar.*
- 6. Grafik materiallar. Slaydlar (bajarilishi shart bo'lgan chizma va grafiklar):** *Macromedia Dreamveaver, PHP va boshqa web sayt yaratish dasturlarida sayt yaratish davomida bir necha grafiklar, tasvirlar va animatsiyali ob'eklardan foydalanildi.*

7. Malakaviy ish bo'yicha maslahatchilar:

№	Bo'lim nomi	Maslahatchi	Imzo, sana	
			Topshiriq berilgan sana	Maslahatchi imzosi
1	<i>Texnologik va dasturiy qism</i>	<i>Uzoqov Z.</i>		

8. Malakaviy ishni bajarilishi bo'yicha kalendar grafik reja

№	Malakaviy ishning bo'limlari	Malakaviy ishning hajmi, bet	Umumiy hajmga nisbatan, %	Bajarilganligi to'g'risidagi belgi	Izoh
	Kirish				
I.	<i>Web saytlar va sahifalar</i>				
1.1.	<i>Web sayt, web sahifa va web server tushunchalar</i>				
1.2.	<i>Web-sahifalar yaratishda HTML teglari</i>				
1.3.	<i>Web-sahifalarida matn va grafikani taqdim etish</i>				
II.	<i>Tijorat korxonalari va savdo do'koni dinamik web-saytini yaratish</i>				
2.1.	<i>"Orginal" savdo supermarketining web sahifasi strukturasini taxrir qilish</i>				
2.2.	<i>Web sayt yaratishda Macromedia Dreamweaver imkoniyatlaridan foydalanish</i>				
2.3.	<i>Ziyonet tarmog'idan foydalanib Word Pressda sayt yaratish va ma'lumotlar joylashtirish</i>				
III	<i>Hayot faoliyati xavfsizligi</i>				
	<i>Xulosa va takliflar</i>				
	<i>Foydalanilgan adabiyotlar</i>				
	<i>Ilovalar</i>				
	<i>Jami:</i>		100		

Malakaviy ish rahbari: _____ Nosirov B.

Topshiriq olingan kun: 2015 yil 19 yanvar

Bitiruvchi talaba: _____ Hakimov E.

MUNDARIJA

Kirish.....	
I. Bob. Web saytlar va sahifalar.....	
1.1. Web sayt, web sahifa va web server tushunchalar.....	
1.2. Web-sahifalar yaratishda HTML teglari.....	
1.3. Web-sahifalarida matn va grafikani taqdim etish.....	
II. Bob. Tijorat korxonalari va savdo do'koni dinamik web-saytini yaratish.....	
2.1. "Orginal" savdo supermarketining web sahifasi strukturasini taxrir qilish.....	
2.2. Web sayt yaratishda Macromedia Dreamweaver imkoniyatlaridan foydalanish.....	
2.3. Ziyonet tarmog'idan foydalanib Word Pressda sayt yaratish va ma'lumotlar joylashtirish.....	
Hayot faoliyati xavfsizligi.....	
Xulosa va takliflar.....	
Foydalanilgan adabiyotlar.....	

A n n o t a t s i y a

Bitiruv malakaviy ishi web sahifa va web sayt yaratish texnologiyalariga bag'ishlangan. Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti sifatida "ORIGINAL" supermarketi olingan. Bitiruv malakaviy ishini bajarishda Macromedia Dreamweaver dasturidan, PHP tilidan, HTML teglaridan, Wordpress, Denwer va boshqa dasturiy vositalaridan foydalanilgan.

А н н о т а ц и я

Выпускная квалификационная работа посвящена технологией построением web страниц и web сайтам. Объектом выпускной квалификационной работы является супермаркет "ОРИГИНАЛ". При выполнении выпускное квалификационной работы использованы программы Macromedia Dreamweaver, язык PHP, теги HTML, праграмный пакеты Wordpress, Denwer и другие.

A b s t r a c t

Graduate work is devoted to the technologies of web pages and web sites. The object of the final qualifying work is supermarket "ORIGINAL". When the execution of final qualifying work program used Macromedia Dreamweaver, Wordpress, Denwer, language PHP, tags HTML and others.

KIRISH

Bugungi kunda milliy informasion tizimini shakllantirish jarayonida Internet va boshqa global axborot tizimlaridan keng foydalanish muxim axamiyatga ega. Bunga erishish XXI- asrda mamlakat taraqqiyoti uchun xal qiluvchi axamiyat kasb etadi. Zamonaviy kompyuterlarni takomillashib borishi ular yordamida bajariladigan ishlarni qo'llanilishini keskin oshirmoqda. Shu bilan birga ular o'rtasida axborot almashinuvi kundan - kunga takomillashib bormoqda.

Dastlab bir necha o'nlab kompyuterlar axborot almashuvini ta'minlovchi lokal tarmoqlar xizmati yo'lga qo'yilgan bo'lsa xozirgi kunga kelib milionlab kompyuterdan birlashuvidan tashkil topgan global tarmoq xizmat ko'rsatmoqda. Kompyuterlar glabal tarmog'ining kengayishida Internet va elektron pochta xizmatining roli kattadir. Bularning ommabop bo'lishida esa ularga xizmat qiluvchi dasturiy tizimlar hamda ularda mavjud bo'lgan ma'lumotlarni mukammal bo'lishi talab etiladi, ya'ni shaxsiy kompyuterlardagi har qanday dasturiy ta'minotning ixtiyoriy foydalanuvchiga tushunarli bo'lishi uchun sodda va mukammal tuzilganligidir.

Axborot texnologiyalar, xususan bugungi kunda beznes va tadbirkorlikda ham axborot texnologiyalarining o'rni oshib bormoqda.

Ushbu bitiruv malakaviy ishi xalqaro global axborot almashuvi tarmog'i bo'lgan Internet tarmog'ining asosiy axborot resursi bo'lgan Web sahifalari yaratish texnologiyasi va dasturiy vositalarini tadbirkorlik sohalarida foydalanish, ma'lumot kiritish, ma'lumot olish masalalariga qaratilgan.

Mavzuning dolzarbligi. Xozirgi kunda zamonaviy texnologiyaga asoslangan olamshumul elektron axborot tarmoqlaridan borgan sari muvoffaqqiyat bilan foydalanilmoqda va uning qudrati ortib borayapti. Xar birimizning xayotimizda axborot olamining axamiyati tobora kuchaymoqda. Kiber olam ma'lumotlaridan kompyuter va Internet vositasida dunyoning barcha burchaklaridagi kishilar bemalol foydalanishlari mumkin. Kompyuter va Internet imkoniyatlaridan foydalana bilish axborot kiber olami bilan kengroq tanishish, baxramand bo'lish dunyoning istalgan nuqtasi bilan bir zumda bog'lanish, muloqat qilish

imkoniyatini yaratadi. Xususan tadbirkorlik va biznes sohalarida internet texnologiyalarini roli oshib borishi, internet orqali amalga oshirilayotgan biznes ishlari savdo korxonalarining web sahifasi bo'lishini talab qiladi va shu bilan birgalikda dunyo bozoriga chiqishiga imkon yaratadi.

Kundalik xayotimizda zamonaviy axborot texnologiyalarini kirib borishi, barcha sohalarda axborot kommunikasion texnologiyalarni joriy etish tobora oldingi o'ringa chiqib borayotganligi, barchamizdan axborot kommunikasiya texnologiyalaridan unumli foydalanishni bilish, kompyuterlardan foydalanish samaradorligini yuqori darajada bo'lishini ta'minlashni talab etadi.

Sohalarda katta xajmdagi axborotlarni tuplanish yaxlit axborot bazasini vujudga kelishi, ularni saqlash, qayta ishlash, uzatish jarayonlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishni yo'lga qo'yish, kompyuter tarmoqlarini kengaytirish va Internet texnologiyalarini joriy etish milliy axborot tarmog'ini yaratish va rivojlantirish, xamda shu kabi boshqa global masalalar bilan uzviy bog'lik Internet foydalanuvchiga cheksiz axborot resurslarini takdim etadi, Internet XX-asrning eng katta kashfiyotlaridan biri hisoblanadi, Internet doim yangilanib boruvchi axborot resurslar ombori. Internet axborot izlash tizimi kerakli axborotni olish vazifasini engillashtiradi.

Ishning maqsadi: Hozirgi kunda axborot kommunikasion texnologiyalari cheksiz imkoniyatlarga ega. Faqat bu imkoniyatlardan to'g'ri va oqilona foydalanish bugungi kun xar bir kishisidan chukur bilim va tafakkurni talab etadi. Zamonaviy bilimlar sari keng yo'l ochish talimotini tokommillashtirishda yangi axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish bugungi kunning talabiga aylanadi. Bu axborot texnologiyalar, internet telekommunikasiya iqtisodiyat sohasida muhim rol o'ynaydi.

Macromedia Dreamweaver dasturida va ziyonet tarmog'idan foydalanib "Orginal" supurmarketi misolida WEB sahifa yaratish. Ushbularni qo'llanilishi juda oson. Unda qilinayotgan ishni ham visual ko'rinishda ham kod ko'rinishida ishlash mumkin. Macromedia Dreamweaver dasturi asosan kodlarni HTML ko'rinishda kiritadi. Ushbu dasturda ishlash juda oson hamda o'rganish soddaligi bilan ajralib

to'radi. Macromedia Dreamweaver dasturi kod ko'rinishini asongina visual ko'rinishga o'tkazadi va aksincha.

Bajarilayotgan ishda jamiyatdan ma'lumotlar asosida web sahifa yaratiladi. Ishda quyidagilar joylashtiriladi: Supermarket haqidagi ma'lumotlar, uning ustavi, invertirlar uchun avzalligi, xizmatlari va shu kabi ma'lumotlar kiritilgan.

Olingan natijalar: Ishlab chiqarish – WEB sahifa oson va tez, ishlaydi.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibi va tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikkita bob, hayot faoliyati xavfsizligi, xulosa va takliflar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. BMIning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, maqsadi va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti, ishning uslubi va uslubiyoti, tadqiqot natijalarini yangilik darajasi va amaliy ahamiyati yoritilgan.

I. BOB. WEB SAYTLAR VA SAHIFALAR.

1.1. WEB SAYT, WEB SAHIFA VA WEB SERVER TUSHUNCHALARI.

Internetning WWW xizmati kundan-kunga rivojlanib, mukammal ma'lumotlar manbasiga aylanib bormoqda. Uning yordamida istalgan sohada, istalgan mavzuda va istalgan vaqtda ma'lumotlarni qidirib topish, ulardan foydalanish, zarur bo'lsa ulardan nusxa olish mumkin. Internetning ushbu xizmat turidan foydalanish uchun avvalo mijoz kompyuterida xuddi shunday imkoniyatlarni yaratib beruvchi maxsus dastur ta'minoti bo'lishi zarur. Bunday dastur ta'minoti brauzer (Browsers) deb ataladi.

Internet texnologiyalarini o'rganishni Web – dizaynnning uch asosiy tushunchalarini aniqlashtirishdan boshlaymiz: Web – sayt , Web – sahifa, Web – server.

Web – sahifa – unikal manzilli hujjat bo'lib, uni brauzer yordamida ko'rish mumkin. Qoidaga ko'ra bu multimediali hujjat bo'lib, unga matn, grafika, ovoz, video yoki animatsiya, boshqa hujjatlarga gipermurojaatlar kiritilgan.

Web – sayt - Web – sahifalarning joylashishi va ma'no buyicha to'plami.

Web – server – tarmoqqa ulangan kompyuter yoki mijozlarga umumiy resurslaraga kirish va bu resurslarni boshqarish imkonini beradigan dastur. Web – serverlar ma'lumotlar bazasi va multimediali axborotlarning bog'liqligini ko'rsatish uchun mo'ljallangan; Web – serverlarda Web – sahifalar va Web – saytlar saqlanadi.

Internet Explorer brauzeri esa ixtiyoriy web sahifani xech qanday muammolarsiz ko'rish va undan to'liq foydalanish imkoniyatini yaratib beradi. Opera brauzerining muxlislari esa uni juda ixcham xajmda ekanligi uchun yaxshi ko'rishadi. Chunki bu brauzer kompyuter tashqi xotirasidan atigi 2 Mb gina joyni egallaydi xolos. Uning juda xam tezkor ishlashi va ko'plab Netscape ishlaydigan PlugIn lar Macromedia Flash, Acrobat Reader, Cosmo Player larni o'zida aks ettira olishi unga bo'lgan qiziqishga sabab bo'lmoqda.

Web sahifalar va ularni uzatish xaqida qisqacha to'xtalib o'taylik.

Bunday dasturlar yordamida biz elektron xujjatni xoxlagan shriftda, o'lchamda, chap yoki o'ng tomondan tekislagan xolda yaratishimiz mumkin. Ammo biz ushbu elektron xujjatni internet yordamida e'lon qila olmaymiz. Sababi, uni o'qimoqchi bo'lgan boshqa bir internet mijozining shaxsiy kompyuterida biz foydalangan matn taxrirlagich dasturi yoki shriftlar o'rnatilmagan bo'lishi mumkin. Buni oldindan aytib bo'lmaydi. Undan tashqari ushbu matnni ochishga mo'ljallangan «oyna»ning o'lchamlari xaqida xech qanday ma'lumotlarga ega emasmiz. Shuning uchun xam ShEHMlarda foydalaniladigan matn taxrirlagichlar va ularning «format»lash usullaridan internetda foydalanib bo'lmaydi.

Bunday noqulayliklarning oldini olish maqsadida yangi HTML (Hyper Text Markup Language) «gipermatnlarni belgilash tili» protokoli, standarti yaratildi. Bu standart bir qancha maxsus operatorlar majmuasidan iborat bo'lgan HTML dasturlashtirish tili bo'lib, uning yordamida elektron xujjatlarni internetda bevosita e'lon qilish mumkin.

Protokol – bu kompyuterlar orasidagi aloqa o'rnatilishida, ma'lumotlarni qabul qilishi va uzatishda foydalaniladigan signallar standartidir. Ya'ni, kompyuterlar protokol yordamida bir-biri bilan bog'lanadi. Protokol to'g'ri bo'lsagina, kompyuterlar o'rtasida aloqa o'rnatiladi. Bu kompyuterlarning bog'lanish tartibi yoki standartidir.

HTTP (Hyper Text Transfer Protocol) esa gipermatnlarni uzatish protokoli bo'lib, u tarmoq protokollari ichida eng sodda va qulay protokollardan xisoblanadi. Uning asosiy vazifasi «giperbog'lanish»dan xosil bo'lgan URL manzilli elektron xujjatlarni o'qishga oid so'rov (zapros)ni serverga jo'natish (xuddi shu vaqtda so'ralayotgan xujjat joylashgan server bilan aloqa o'rnatiladi) va so'ralayotgan xujjat olib bo'lingandan so'ng server bilan aloqani uzishdan iborat.

HTML formatida tayyorlangan elektron xujjat HTML xujjat, web xujjat yoki web sahifa deb ataladi. Agar elektron xujjatni tayyorlash xaqida gap borsa, u xolda xujjat HTML xujjat deb ataladi, ushbu elektron xujjatni internetda e'lon qilish yoki tarqatish xaqida gap borsa, u xolda bunday elektron xujjat web sahifa deyiladi.

1.2. WEB SAYT YARATISHDA HTML TEGLARI

HTML tili buyruqlari teg (inglizchada- tag) deb ataluvchi maxsus elementlar yordamida beriladi, ya'ni uning asosini teglar tashkil etadi. Teglar < > qavs orasida berilib, ular brouzerda ko'rinmaydi va qulay ko'rinishga keltirish uchun xizmat qiladi. Odatda ko'pchilik teglar ikki marta takrorlanib jufti bilan beriladi, ya'ni «ochilib-yopiladi». Masalan, < BODY>, < / BODY>.

HTML tili tanasida ajratib ko'rsatish uchun teglar katta harflar bilan yoziladi va < **HTML** > bilan boshlanib </ **HTML** > bilan tugaydi. Bunda katta va kichik harflar farqlanmaydi.

Shuningdek HTML tili andozasi bo'yicha hujjatga <HEAD> va <BODY> teglarini kiritish tavsiya etiladi. Brauzer HTML hujjatni o'qiganida, ularning borligi hujjat bo'limlarini aniq ko'rsatadi. Agar ular bo'lmasa ham brauzer HTML hujjatni to'g'ri o'qiydi, lekin hujjat bo'limlari bir-biridan ajralib turmaydi.

Hujjatlar bilan ishlashni tezlashtirish maqsadida Webda ma'lum buyruqlar mavjud. WWW buyruqlar ro'yxati quyidagilardir:

B	avvalgi hujjatga qaytish;
O	hujjatning keyingi sahifasiga o'tish;
G	ko'rsatilgan axborot resursga bevosita o'tish;
H	sahifani chiqarish (yordam berish yo'li bilan);
Ho	boshlang'ich hujjatga qaytish;
I	joriy hujjatda boshqa hujjatlarni murojaatlarini ko'rsatish;
M	dasturdan foydalanish haqidagi ma'lumotlarni ekranga chiqarish;
N	avvalgi hujjatdan keyingi murojaatga o'tish;
Con	hujjatga murojaat bilan o'tish;
Quit	WWWdan chiqish;
V	ko'rib chiqilgan hujjatlarning ro'yxatini chiqarish;
v con	ko'rsatilgan hujjatga qaytish;
Return	bir sahifa pastga o'tish;
T	hujjatning keyingi sahifasiga qaytish;
U	hujjat ichida bir sahifa yuqoriga chiqish.

Shunday qilib, to'g'ri tuzilgan HTML hujjat quyidagi tuzilishga ega:

< HTML >

< HEAD>

Sarlavhaga oid ma'lumotlar

< / HEAD>

< BODY>

Hujjatning mazmuni

< / BODY>

</ HTML >

Bunda < HEAD>, </ HEAD> orasida joylashgan sarlavhaga oid ma'lumotlar qismida, odatda, foydalanuvchiga e'tiborsiz, lekin brauzer uchun lozim ma'lumot beriladi.

< BODY>, < / BODY> orasiga esa to'laligicha uning operatorlari ketma-ketligi joylashtiriladi.

Masalan:

< HTML >

< HEAD>

< TITLE> web sahifa 1< /TITLE> (Bu oynaning bosh qismi uchun)

< / HEAD>

< BODY>

<p>Mening birinchi web-sahifam </p> (Bu taxrir oynasi uchun)

< / BODY>

</ HTML >

HTML tili operatorlari va ularning to'liq tasnifi. HTML tili operatorlardan tashkil topadi. Ularning asosiylari quyidagilar.

1. **<!--...-->** - izoh. Shu belgi orasiga joylashtirilgan ixtiyoriy matn izoh deb qaraladi.

2. **A <A>...** - hujjatga gipermurojaat o'rnatish.

Atributlari (qo'shimcha yordamchi operatorlari, bular **<A>...** orasida ishlatiladi): **HREF**, **NAME**, **TARGET**, **_blank**, **_top**, **_parent**, **_self**, **TITLE**, **TYPE**, **CHARSET**, **HREFLANG**.

- ✧ **HREF** atributi- gipermurojaatga olib boruvchi URL ta'riflovchisi vazifasini bajaradi. M: **<A HREF http://www.nuu.uz> UzMU **. Agar yo'nalish ichma ich joylashgan papkalarda joylashgan bo'lsa " / " belgisi yordamida ko'rsatiladi. Agar murojaat shu sahifadagi biror belgiga bo'rnatish lozim bo'lsa " # " belgisidan keyin ko'rsatiladi;
- ✧ **NAME**– Agar gipermurojaat shu sahifaning o'ziga o'rnatilgan bo'lsa, o'tishni ushbu atribut yordamida ko'rsatish;
- ✧ **TARGET** – Gipermurojaat qayerda ochilish kerakligini ko'rsatadi;
- ✧ **_blank**- Gipermurojaat natijasini yangi oynaga ochib beradi;
- ✧ **_top**- natijani brouzerdagi barcha oynalarga ochish (mahsus **FRAME** lar uchun);
- ✧ **_parent**- natijani brouzerdagi bosh sahifa oynasiga ochish (mahsus **FRAME** lar uchun);
- ✧ **_self** - natijani joriy oynada ochish (mahsus **FRAME** lar uchun);
- ✧ **TITLE**- Bu hujjat oynasining bosh qismini ifodalash uchun;
- ✧ **TYPE**-Gipermurojaat o'rnatilgan xujjatning **MIME** - turini aniqlaydi;
- ✧ **CHARSET**- Gipermurojaat o'rnatilgan xujjatning yozuv kodini aniqlaydi;
- ✧ **HREFLANG**- Gipermurojaat o'rnatilgan xujjatning yozuv tilini aniqlaydi.

3. **ABBR <ABBR>...</ABBR>**- o'z matnini abbreviatura (qisqartma) sifatida aniqlaydi.

4. ACRONYM <ACRONYM>...</ACRONYM>- abbreviaturalarni belgilash uchun ishlatiladi. U orqali akronimlarni (abbreviaturalardan iborat so'zlarni) belgilash tavsiya etiladi. So'zlarni qisqartirib yozish mumkin.

M (masalan): <acronym titleq" Kompyuter Texnologiyalari Fakulteti "> KTF </acronym>.

5. ADDRESS <ADDRESS>...</ADDRESS>- hujjat muallifini belgilash va adresini ko'rsatish uchun ishlatiladi.

M: <ADDRESS> (c) Copyright 2010, O'zMU </ADDRESS>.

6. APPLET <APPLET CODEq "... " WIDTHq "... " HEIGHTq "... ">... </APPLET>

Bu element sahifa tarkibiga applet (qo'shimcha effekt) o'rnatish uchun ishlatiladi.

Atributlari: **CODE**, **WIDTH** (qo'yilishi zarur), **HEIGHT**(qo'yilishi zarur).

Shuningdek quyidagi buyruqlarni ham ishlatish mumkin:

- ✧ **CODE** – yuklanuvchi Java-fayl nomini aniqlaydi.
- ✧ **WIDTH** – Appletning balandligi;
- ✧ **HEIGHT** – Ob'ektning kengligini ko'rsatish;
- ✧ **CODEBASE** - Java-fayl sinfli ob'ekt joylashgan katalogni ko'rsatish .
- ✧ **ALT** –Brouzer appletni o'qimasa yoki appletni yuklab bo'magan bo'lsa, vaqtinchalik berilgan matnni ko'rsatish;
- ✧ **ALIGN** – Sahifada appletning holatini ko'rsatish;
- ✧ **top** – yuqori chegara bo'yicha joylashtirish;
- ✧ **middle**- markazlash;
- ✧ **bottom**- pastki chegara bo'yicha;
- ✧ **left** – chap chegara bo'yicha;
- ✧ **right** – o'ng chegara bo'yicha;

- ✧ HSPACE –appletdan o'ng va chapdagi bo'sh maydoni o'lchovini pikselda ko'rsatish;
- ✧ VSPACE - appletdan yuqori va pastdagi bo'sh maydoni; o'lchovini pikselda ko'rsatish;
- ✧ NAME – Applet nomini ko'rsatish;
- ✧ OBJECT – maxsus appletni aniqlash uchun ishlatiladi.

7. B ... - matnni qalinlashtirilgan shrift bilan tasvirlaydi.

M: Bir, Ikki, uch .

8. BASE Bazasini ko'rsatish, xozirda joriy hujjat joylashgan joyini ko'rsatish.

9. BASEFONT <BASEFONT>...</BASEFONT>- hujjatda avvaldan qabul qilingan shriftning o'lchami, turi va rangini ko'rsatish uchun ishlatiladi. Odatda, matnda shrift o'lchamini bir xilda, ta'kidlashsiz ko'rsatish uchun ishlatiladi. Shrift o'lchami 1 dan (eng kichik) va 7 gacha (eng katta). Takidlanmasa avtomatik ravishda 3 o'lchovida yoziladi.

M: <BASEFONT SIZEq"4">

10. BGSOUND Sahifa foniga ovozni ulash. *.mid, *.wav, *.au turdagi ovozli fayllarni qabul qiladi.

- ✧ SCR - orqali ovozli fayl joylashgan joy ko'rsatiladi;
- ✧ LOOP – fonli ovozning takrorlanishlar sonini ko'rsatish, "-1" qiymati yoki
- ✧ "INFINITE" ni tanlash orqali cheksiz qilib qo'yish mumkin.

11. BIG <BIG>...</BIG> - katta o'lchamdagi matnni ko'rsatadi.

M: <big> Katta o'lchamli matn </big>.

12. BLINK <BLINK>...</BLINK>- o'chib-yonib turuvchi matnni tasvirlaydi.

13. BODY <BODY>...</BODY> - Web varaqni to'ldiruvchi matn, deskriptorlar va boshqa ma'lumotlarni aniqlaydi, ya'ni asosiy ma'lumotlar ushbu teglar orasida kiritiladi.

Atributlari:

✧ BACKGROUND– Fon tasviri yoki rasmning manzilini ko'rsatish;

M: <body backgroundq"Rasm1.gif" ... >

✧ BGCOLOR– Fon rangini ko'rsatish, bunda rang o'rnida tasvir yoki rasmlardan ham foydalanish mumkin.

M: <body backgroundq"Rasm1.gif" bgcolorq"red"...>- yoki boshqa ixtiyoriy rang;

✧ TEXT– Matnning asosiy rangi;

M: <body backgroundq"Rasm1.gif" bgcolorq"gray" textq"black" ... >

✧ LINK– Gipermurojaatli matn rangi;

M:<body backgroundq"Rasm1.gif" bgcolorq"red" textq"black" linkq"blue"... >

✧ VLINK - Gipermurojaatli matn tanlangandan keyingm rangi;

M: <body backgroundq"Rasm1.gif" bgcolorq"red" textq"black" linkq"blue" vlinkq"olive"... >

✧ ALINK – Joriy gipermurojaat rangi, kursor yordamida tanlangan payti shu rang ko'rinadi;

M: <body backgroundκ"Pacm1.gif" bgcolorκ"red" textκ"black" linkκ"blue" vlinkκ"olive" alinkκ"orange"... >

✧ TOPMARGIN – Xujjatdan brouzergacha yuqori chegarani aniqlaydi. Bunda piksel va foiz o'lchamidan foydalanish mumkin,

M: <body topmarginq"1" ... >, <body topmarginq"10%" ... >.

✧ BOTTOMMARGIN - Xujjatdan brouzergacha pastki chegarani aniqlaydi. Bunda piksel va foiz o'lchamidan foydalanish mumkin, M: <body bottommarginq"5" ... >, <body bottommarginq"12%" ... >.

✧ LEFTMARGIN - Xujjatdan to brouzergacha chap chegarani aniqlaydi. Bunda piksel va foiz o'lchamidan foydalanish mumkin,

M: <body leftmarginq"10" ... >, <body leftmarginq"7%" ... >.

✧ **RIGHTMARGIN** – Xujjatdan to brouzergacha o'ng chegarani aniqlaydi.
Bunda piksel va foiz o'lchamidan foydalanish mumkin,

M: <body rightmargin"17" ... >, <body rightmargin"5%" ... >.

14. BR Satrni avtomatik bo'lib keyingi satrga o'tkazish.

15. CAPTION Jadval teglari orsida joylashib, jadval nomi yoki jadval sarlavhasini aniqlaydi.

<CAPTION ALIGNq(TOP yoki BOTTOM)>...<CAPTION>

M: <table ... > <caption> Mening birinchi jadvalim </caption> ... </table>.

16. CITE <CITE>...</CITE> - kitob nomlari yoki sitatalar va maqolalarda boshqa manbalarga murojaat va hokozolarni belgilash uchun ishlatiladi.

17. CODE <CODE>...</CODE> - o'z matnini programma kodining katta bo'lmagan qismi sifatida aniqlaydi.

18. DEL ... - o'z matnini o'chirilgan sifatida aniqlaydi.

M: 23.03.2001 dagi yangiliklar .

19. DD Matn chap chegara bo'yicha tekislanadi.

M: <dl>

<dt> Birinchi pag`ona

<dd> Ikkinchi pag`ona</dd>

</dl>

20. DFN <DFN>...</DFN> - o'z matn qismini ta'rif sifatida aniqlaydi.

21. DL <DL>...</DL> - ta'riflar ro'yxatini ko'rsatadi. Ichida <DT> teg orqali aniqlanayotgan termin, <DD> teg bilan esa abzas o'z ta'rifi bilan aniqlanadi.

M: <dl>

<dt> Birinchi holat

<dd> Ikkinchi holat</dd>

</dl>

22. DT <DL> tegi yordamida matnni oynaning chap chegarasi bo'yicha joylashtirish.

M: <dl>

<dt> Birinchi holat

<dd> Ikkinchi holat <dd>

</dl>

23. EM ... -matnning zarur qismlarini ajratish uchun ishlatiladi. Odatda bu qo'lyozmali ko'rinishlardir.

24. EMBED Sahifadagi bajariluvchi ob'ektlar uchun zarur bo'lgan vositalarning joylashgan joyini ko'rsatish yoki avtomatik bajariladigan qilish. Masalan Flash, VRML, QuickTime, Adobe Acrobat va boshqa vositalar orqali.

SCR – orqali ob'ekt (fayl) ning joylashgan joyi yo'lini ko'rsatish.

25. FONT ... - shrift parametrlarini ko'rsatadi.

Atributlari:

- ✧ SIZE – matn o'lchamini ko'rsatish;
- ✧ COLOR – matn rangini ko'rsatish;
- ✧ FACE – shrift nomini ko'rsatish, shuningdek bir nechta shriftni ham o'rnatish mumkin:

M: qizil rang, o'lchami uch

26. H1 Matn qismi yoki holati.

<H1>...</H1> - birinchi pog`ona sarlavhalari.

Atributlari:

- ✧ ALIGN – Tekislashni aniqlash;

- ✧ left – chap chegara bo'yicha;
- ✧ right – o'ng chegara bo'yicha;
- ✧ center – markaz bo'yicha;
- ✧ justify – kengligi bo'yicha (eniga);

M: <h1 alignq"center" ... > ... </h1>

- ✧ FONT – berilgan matn qismi shriftini ko'rsatish;

M: <h1 alignq"center" fontq"Verdana" ... > ... </h1>

- ✧ SIZE – shrift o'lchamini ko'rsatish;

M: <h1 alignq"center" fontq"Verdana" sizeq"3" > ... </h1>

26. H2 <H2>...</H2> - ikkinchi pog`ona sarlavhalari. Umuman olti xil sarlavhalar mavjud. Ularning qolgan to'rttasi <H3>,<H4>,<H5>,<H6> bilan belgilanadi.

Atributlari:

- ✧ ALIGN – Tekislashni aniqlash;
- ✧ left – chap chegara bo'yicha;
- ✧ right – o'ng chegara bo'yicha;
- ✧ center – markaz bo'yicha;
- ✧ justify – kengligi bo'yicha (eniga);

M: <h1 alignq"center" ... > ... </h1>

- ✧ FONT – berilgan matn qismi shriftini ko'rsatish;

M: <h1 alignq"center" fontq"Verdana" ... > ... </h1>

- ✧ SIZE – shrift o'lchamini ko'rsatish;

M: <h1 alignq"center" fontq"Verdana" sizeq"3" > ... </h1>

27. HEAD <HEAD>...</HEAD> - sarlavhani aniqlaydi, hujjat haqidagi ma'lumotni ko'rsatadi. Masalan, nomi. Teglar orasida <title> ... </title> dan foydalanish mumkin.

28. HR <HR> - gorizontal chiziq (chizg`ich) qo'yadi.

29. HTML <HTML>...</HTML> - hujjatni kodlashtirishda ishlatish uchun tilni aniqlaydi. Ochuvchi hujjatni boshida, yopuvchi esa oxirida joylashtiriladi.

30. I <I>...</I> - matnni qo'lyozma shrift bilan tasvirlaydi.

<i> Bir, ikki, uch </i>.

31. IMG - rasm joylashtiradi. Masalan: , bu erda poto1 - sizning Web-sahifangizdagi fayl bilan bitta katalogda turgan rasm nomi.

Atributlari:

- ✧ SCR – rasm joylashgan joyni ko'rsatish;
- ✧ ALT – rasm ochilguncha yoki ochilmay qolganda tegishli matnli satr kiritish;
- ✧ ALIGN –tasvirda matnnng holatini ko'rsatish;
- ✧ top – yuqori chegara bo'yicha;
- ✧ bottom- pastki chegara bo'yicha;
- ✧ left – chap chegara bo'yicha;
- ✧ right – o'ng chegara bo'yicha;
- ✧ center – markaz bo'yicha;
- ✧ WIDTH – rasm kengligi;
- ✧ HEIGHT – rasm balandligi;
- ✧ HSPACE – gorizontal bo'yicha tasvirgacha bo'lgan bo'sh maydonni aniqlash;
- ✧ VSPACE - vertikal bo'yicha tasvirgacha bo'lgan bo'sh maydonni aniqlash;
- ✧ BORDER – tasvir atrofidagi chiziq o'lchamini ko'rsatish
- ✧ USEMAP - MAP komponentasini "#nomi" yoki "URL#nomi" ko'rinishda nomini aniqlash, gipermurojaat uchun ishlatiladi.
- ✧ NAME – tasvir nomini aniqlaydi.

M:

32. INS <INS>...</INS> - o'z matnini orasiga joylashtirish kabi aniqlaydi.

33. KBD <KBD>...</KBD> - matnni foydalanuvchi tomonidan klaviatura orqali kiritilgan kabi aniqlaydi. Odatda monoshirin shrift bilan tasvirlanadi.

M: <kbd> Kasbingizni kiriting: </kbd>.

34. LI ...() - ro'yxatdagi har bir element boshlanishini aniqlaydi.

✧ VALUE – ro'yxat yozilish tartibini (nomer boshini) aniqlaydi.

✧ TYPE – ro'yxatdagi nomerlash turini ko'rsatish.

M: <li value="5"> ...

35. OBJECT ActiveX elementlarni aniqlaydi.

Atributlari:

✧ CLASSID - URL elementini aniqlaydi.

✧ CODETYPE – ob'ekt turini aniqlaydi.

✧ ALIGN – sahifada ob'ektning holati ko'rsatiladi

✧ top – yuqori chegara bo'yicha;

✧ bottom- pastki chegara bo'yicha;

✧ left – chap chegara bo'yicha;

✧ right – o'ng chegara bo'yicha;

✧ center – markaz bo'yicha;

✧ BORDER – applet atrofi o'lchami ko'rsatiladi;

✧ WIDTH – ob'ektning kengligi;

✧ HEIGHT – ob'ektning balandligi;

✧ HSPACE – gorizontal bo'yicha ob'ektgacha bo'sh sohani aniqlash;

✧ VSPACE - vertikal bo'yicha ob'ektgacha bo'sh sohani aniqlash;

✧ STANDBY – yuklanuvchi ob'ektning chiqish joyini ko'rsatish;

✧ TYPE – faylning MIME turini ko'rsatish;

✧ NAME – yuklanuvchi ob'ektning nomini ko'rsatish

36. OL ... -to'liq tartiblangan ro'yxatni aniqlaydi.

Atributlari:

✧ **TYPE** – tartiblangan ro'yxat turini ko'rsatish::

- ✧ 1 – arab raqamlari yordamida tartiblash;
- ✧ **A** – katta harflarda tartiblash;
- ✧ **a** – kichik harflarda tartiblash;
- ✧ **I** – rim raqamlarida tartiblash;
- ✧ **i** – kichik rim raqamlarida tartiblash
- ✧ **COMPACT** – ro'yxatni ixcham ko'rinishda tasvirlash uchun ishlatiladi

M: <ol type="I" compact>

37. P <P>...</P> - bitta abzasning boshlanishini aniqlaydi.

Atributlari:

- ✧ **ALIGN** – tekislashni aniqlash;
- ✧ **left** – chap chegara bo'yicha;
- ✧ **right** – o'ng chegara bo'yicha;
- ✧ **center** – markaz bo'yicha;
- ✧ **justify** – kengligi bo'yicha (eniga);<p align="Justify"> ... </p>

38. PRE <PRE>...</PRE> - oldindan formatlangan matnni aniqlaydi

M: <pre> **Probellarni tekshirish** </pre>.

39. Q

<Q>...</Q> - qisqa sitatalarni matn satrida belgilaydi. Odatda qo'lyozma shaklida tasvirlanadi.

40. SAMP <SAMP>...</SAMP> - matnni namuna sifatida belgilaydi.

41. SCRIPT JavaScript kodini aniqlaydi.

42. SMALL<SMALL>...</SMALL> - kichik o'lchamdagi matnni ko'rsatadi.

Odatdagi matn o'lchamidan bitta kam o'lchovni o'tkazadi,

M: <small> kichik matn </small>

43. SPAN ... - matn qismining xossalarini bekor qilish zarur bo'lganda ishlatiladi.

44. STRONG... - matnning muhim qismlarini ajratish uchun ishlatiladi, odatda qalinroq shrift ko'rinishida bo'ladi.

45. STYLE CSS – kaskadli ko'rinishdagi varaqlar holatini ifodalash.

46. SUB Matnni quyi indeks kabi ifodalash

M: _{Bir, ikki, uch}

47. SUP Matnni yuqori indeks kabi ifodalash

M: ^{bir, ikki, uch}

48. TABLE Jadval yaratishda ishlatiladi.

<TABLE> ... </TABLE>

<TABLE ... > ichida atributlari yoziladi:

Atributlari:

✧ **BORDER** – jadval chegarasi chiziq kengligini ko'rsatish;

M: <table borderq"2" ... > ... </table>

✧ **ALIGN** – gorizontal bo'yicha tekislash.

✧ **left** – chap chegara bo'yicha;

✧ **right** – o'ng chegara bo'yicha;

✧ **center** – markaz bo'yicha;

M: <table borderq"2" alignq"center"... > ... </table>

✧ **WIDTH, HEIGHT** – kengligi va balandligi. Odatda piksel yoki foizlarda beriladi

M: <table borderq"2" alignq"center" widthq"300" heightq"100%"... > ... </table>

✧ **CELLSPACING** - +o'shni yacheykalar orasining kengligini ko'rsatish, piksel yoki foizlarda beriladi;

M: <table borderq"2" alignq"center" cellspacingq"5"... > ... </table>

✧ **CELLPADDING** – yacheykalardagi ma'lumot va chiziq chegarasi orasining kengligini ko'rsatish, piksel yoki foizlarda beriladi.

M: <table borderq"2" alignq"center" cellspacingq"5" cellpaddingq"10%" ... > ... </table>;

✧ **FRAME** – jadvalda qaysi chegaralarni ko'rsatish va qaysilarini ko'rinmaydigan qilish;

✧ **BOX** – to'rtta tomoni bo'yicha ko'rsatish;

✧ **VOID** – ko'rinmaydigan qilish;

✧ **ABOVE** – yuqori chiqiqni ko'rsatish;

✧ **BELOW** – pastki chiqiqni ko'rsatish;

✧ **HSIDES** – yuqori va pastki chiziqni ko'rsatish;

✧ **VSIDES** - chiziqni ko'rsatish;

✧ **LHS** – chap chiziqni ko'rsatish;

✧ **RHS** – o'ng chiziqni ko'rsatish;

M: `<table borderq"2" alignq"center" cellspacingq"5" cellpaddingq"10%" frameq"above"... > ... </table>;`

✧ **RULEZ** - qaysi tashqi chiziqni ko'rsatishni aniqlash;

✧ **NONE** - to'rtta tomoni ham ko'rsatish;

✧ **ROWS** – satrlarni ko'rsatish;

✧ **COLS**- yacheyka va ustunlarni ko'rsatish;

✧ **ALL** – hammasini ko'rsatish;

✧ **GROUPS** – yacheykalarni guruh bo'yicha ko'rsatish,

M: `<table borderq"2" alignq"center" cellspacingq"5" cellpaddingq"10%" rulesq"rows"... > ... </table>;`

✧ **BGCOLOR** – jadval foni rangini ko'rsatish;

M: `<table bgcolorq"green" borderq"2" alignq"center" ... > ... </table>`

✧ **BORDERCOLOR** – jadval chegarasi rangi;

✧ **BACKGROUND** – jadval foni sifatida tasvirdan foydalanish.

49. TD `<TD>...</TD>` - jadval satrida alohida yacheykani ramkaga oladi.

50. TH `<TH>...</TH>` - jadval sarlavha yacheykasi uchun ishlatiladi.

51. TITLE `<TITLE>...</TITLE>` - sarlavhani tashkil etadi. Ushbu teglar orasida brauzerda xujjat nomini ko'rsatish mumkin.

52. TR `<TR>...</TR>` - jadvalda satrning boshi va oxiri.

Jadval satrini aniqlaydi, `<TH>` yoki `<TD>` teglar orasida ko'rsatiladi. Atributlari:

✧ **ALIGN** – gorizontal bo'yicha joylashtirish.

✧ **left** – chap chegara bo'yicha;

✧ **right** – o'ng chegara bo'yicha;

✧ **center** – markazlashtirish.

✧ **VALIGN** – vertikal bo'yicha joylashtirish.

✧ **top** – yuqori chegara bo'yicha;

- ✧ **middle**- markazga;
- ✧ **bottom**- pastki chegara bo'yicha;
- ✧ **baseline**- bazali chiziq bo'yicha;
- ✧ **BGCOLOR** – Jadval satrining foni rangini aniqlaydi.
- ✧ **BORDERCOLOR** – Satr chegarasi.
- ✧ **BORDERCOLORDARK, BORDERCOLORLIGHT** – Satrning soyali va yoru\ tomonini ko'rsatish, Bu 3 o'lchovli ko'rinishlarni ifodalashda ishlatiladi

53. U <U>...</U> - matnni ostki qismi chizilgan holda tasvirlaydi.

M: <u> Bir, ikki, uch </u>.

54. UL ...

Markerli ro'yhat yaratish. yordamida beriladi.

Atributlari:

- ✧ **TYPE** – Marker turini ko'rsatish;
- ✧ **disc** – Bo'yalgan doira;
- ✧ **circle** – Bo'yalmagan doira;
- ✧ **square** – Kvadrat;
- ✧ **COMPACT** – Matn ko'rinishini ixchamlashtirish.

M: Bir Ikki Uch To'rt Besh

55. VAR <VAR>...</VAR> - programma o'zgaruvchilar nomlarini belgilaydi. Odatda kursiv ko'rinishda bo'ladi.

DHTML kengaytirish. Albatta HTML vaqt o'tish bilan mukammallashib boradi. HTML andozalari ham takomillashib boradi. DHTML (Dynamic HTML)-HTML hujjatning yangi andozasidir.

U quyidagi yangiliklarni amalga oshiradi.

- 📄 HTML- hujjatni ko'rishda mumkin bo'lgan hodisalar sonini kengaytirish, Harakatli ko'rinishlar yaratish.
- 📄 HTML-hujjatga uning mos elementining parametri bo'lgan formatlash stilini, ya'ni harf o'lchovi, matn rangi, abzas chekinishlari va hokazo imkoniyatini kiritish.

Stilli formatlash, HTML hujjat ichida matnni rasmiylashtirish, variantlarini tasvirlash uchun xizmat qiladi. Bu esa HTML ichida mustaqil ravishda shriftlarni va ularning o'lchamini, abzas chekinishlarini elementlarning ramkasi, ranglarini va boshqalarni berish imkoniyatlarini tug'diradi. Brauzer programma ko'rib chiqadigan hodisalar sonini ko'paytirish hujjat dizaynini yaxshilashga olib keladi. Eski brauzerlar DHTMLni qo'llamasligi ham mumkinligini esda saqlash lozim.

HTML da programmalash tillaridan foydalanish. HTMLni rivojida DHTMLdan tashqari Internet sahifalarini yaratishda yana bir imkoniyat-programmalar ishchi holatini saqlab turish imkoniyati paydo bo'ladi. Uning yordamida HTML hujjatga u yoki bu effektlarni (yangi elementlarni) kiritish mumkin. Buning uchun Java programmalash tilidan foydalaniladi. Hozirda HTML hujjatlarni ishlab chiqishda Java amaliy andoza bo'lib, u Internet amaliy programmlarini yaratish uchun qo'llaniladi. Uning yordamida programmlar axborot serverlar hamda HTML hujjatlar uchun yozilishi mumkin. U apparatga (kompyuterga) bog'liq bo'lmagan til sifatida yaratilganligi uning universalligini ta'minlaydi. Java IBM PC, Macintosh, Unix sistemali, ya'ni turli platformali kompyuterlarda bimalol ishlayveradi. Tabiiyki, hozircha mavjud brauzer programmlar uni "tushunadi".

1.3. WEB-SAHIFALARIDA MATN VA GRAFIKANI TAQDIM ETISH

Web uchun professional grafikani yaratishda chetlari tekislangan matndan foydalaniladi. Tekislash notekis chetlardagi engilgina razmtost bo'lib, ranglar o'rtasidagi o'tishlarni tekislaydi. Tekislanmagan chetlar, aksincha, kertik-mertik va pog'onali ko'rinadi. Juda kichik o'lchamdagi (10 punkt yoki undan kam) matn bu umumiy qoidadan istisnodir, chunki tekislashni qo'llash uni deyarli farqlab bo'lmaydigan qiladi.

Masalan, mutanosib shriftda bosh «W» harfi gorizontal bo'yicha katta «I» harfiga qaraganda ko'p joy egallaydi. Times, Helvetica va Arial kabi garnituralar mutanosib shriftlarning namunasi hisoblanadi. Web-brauzerlar Web-sahifadagi aksariyat matnlar uchun, shu jumladan, asosiy matn, sarlavhalar, ro'yxatlar, sitatalar va boshqalar uchun mutanosib shriftlarni ishlatadi. Odatda, asosiy matnning katta bo'laklariniular mutanosib shriftlarda bosmadan chiqarilgan bo'lsa o'qish qulayroqdir.

Ko'pchilik foydalanuvchilar sukut bo'yicha o'rnatilgan shriftlarni almashtirishga vaqtlari bo'lmaganligi sababli, sizning sahifangizdagi matn 10 yoki 12 o'lchamdagi Times (Netscape) yoki Helvetica (Microsoft Internet Explorer) shrifti bilan aks etishini juda katta ehtimol bilan kutish mumkin. Bu faqatgina umumiy qoidadir, xolos. Belgilagan kenglikdagi shrift shriftning barchabelgilari uchun bir xil joy taqdim etadi. Katta bosh «W» harfi «I» harfidan ko'p joy egallamaydi.

Courier va Monaco kabi garnituralari belgilangan kenglikdagi shriftlar hisoblanadi. Web-brauzerlarda belgilangan kenglikdagi shriftlardan quyidagi HTML-teglar: <roer>, <tt>, <code>, <kbd>, <samp>, <xtr> ichidagi ixtiyoriy matnni aks ettirish uchun uchun foydalanadi Ko'pchilik sukut bo'yicha o'rnatilgan shriftlarni sozlashni o'zgartirmaganligi sababli, ko'rsatilgan teglarda joylashgan matn Courier tipidagi shriftlarning birida chiqariladi. Tasvirlardagi matn. Dizaynerlar shriftlar ustidan absolyut nazoratni o'rnatishning eng to'g'ri usuli – matnni tasvirga joylashtirish ekanligini tez tushundilar.

GIF fayllari ko'rinishida bajarilgan sarlavhalar, kichik sarlavhalar va e'lonlarni tez-tez ko'rish mumkin. Ko'pgina Web-sahifalar faqat grafikada taqdim etilgan bo'lib, sahifaning butun matnini o'z ichiga oladi. HTML-matnning o'rniga grafikadan foydalanishning afzalliklari shubhasiz aniqdir: shriftning tipi, o'lchami, interliniyaj, harflar o'rtasidagi oraliq, rang va tekislashni – ya'ni faqat HTML da qiyinchilik tug'diradigan barcha atributlarni aniqlash mumkin; sizning sahifangiz barcha grafika brauzerlarida chiqarishda bir xil bo'ladi. Lekin bu usulda ham qator kamchiliklar mavjud: tasvir matnga qaraganda uzoqroq yuklanadi, chunki grafika fayllari odatda HTML-matnlarga qaraganda ancha katta bo'ladi; nografika brauzerlarida ichidagi narsa yo'qotiladi.

Grafikani ko'ra olmaydigan (yoki ko'rishni xohlamayotgan) foydalanuvchilar matnni ham ko'rishmaydi. Grafika tasvirining o'rnidagi muqobil matn (Alt atributidan foydalaniladi) yordam beradi, lekin uning imkoniyatlari chegaralangan va bu har doim ham mavjud bo'lmagan grafika axborotini tenglashtirishning ishonchli usuli bo'lmaydi; tasvirda joylashgan axborotni indeksasiyalash yoki uni izlashni tashkil qilish mumkin emas. Natijada hujjatdan axborotning muhim qismlari chiqarib tashlanadi.

Shrift o'lchami. Odatda shriftning o'lchami punktlarda belgilanadi (72 punkt (pt) = shrift balandligining 1 dyuymi), lekin afsuski, bu o'lchamlar platformalar o'rtasida etarlicha aniq o'tkazilmaydi. Bu qisman ularning operasion tizimlari turli ajrata olishli displeylarni boshqarishi sababli ro'y beradi. Odatda, Windows – 96 nuqta/dyuym, MacOS – 72 nuqta/dyuym ekranning ajrata olishidan foydalanadi.

MultiScan monitorlarining ajrata olishi ancha yuqoriroq bo'ladi. Web-sahifalarda grafikani taqdim etishda hozirgi paytda Web dagi barcha tasvirlar ikki formatda: GIF va JPEG formatlarida taqdim etilgan. Eslatib o'tish o'rinli bo'lgan uchinchi raqib, PNG formati, brauzerlarning qo'llab-quvvatlashi va e'tibori uchun kurashmoqda.

GIF. GIF – Graphics Interchange Format ni Web ning an'anaviy formati deb atash mumkin. U Web-brauzerlar qo'llab-quvvatlagan fayllarning birinchi formati bo'lgan va hozirgi kungacha ham Web ning asosiy grafika formati bo'lib kelmoqda.

Uning xususiyatlari quyidagilardan iborat: 256 dan ortiq bo'lmagan rangni qo'llab-quvvatlaydi (kam bo'lishi mumkin va ko'pincha shunday ham bo'lishi kerak); ranglar palitrasidan foydalanadi.

Bir faylda bir necha tasvirlarni saqlashimkoniyatiga ega, bu animasiya qilingan GIF larni tayyorlashda qo'llanilmoqda; faylga izoh qo'yish, tasvirlarni ko'rsatish orasida ushlanib qolishni bajarish va boshqalarga imkon beradigan faylga boshqaruvchi bloklarni qo'yish imkoniyatini qo'llab-quvvatlaydi. Endi esa ushbu xususiyatlar nimalarga olib kelishi mumkinligi to'g'risida biroz tushuntirish berib o'tamiz.

Yuqorida yozganimizdek, GIF 256 dan ko'p bo'lmagan rangni qo'llab-quvvatlaydi, bu esa biz GIF-formatida saqlanadigan barcha tasvirlar ushbu chegara doirasiga sig'ish uchun (turli dasturlar bunga turlicha erishadilar) ranglar miqdorini kamaytirishini anglatadi. Bu erdan esa xulosa kelib chiqadi – agar ranglari bir-biriga uyg'un o'tadigan va ilg'ash qiyin bo'lgan rang tuslari bor yaxshi fotosuratni olsak, u o'zgartirilgandan so'ng hammasi ancha yomon bo'ladi – tuslar ilg'anmaydigan bo'ladi va butun fotosurat tabiiy ko'rinishini yo'qotadi.

Shuning uchun agar fotosuratni GIF formatida saqlash va barcha rang tuslarini berish shart bo'lsa, hiylalarga borishga to'g'ri keladi. Masalan, fotosuratga qandaydir badiiy filtrni qo'llash va uni rasmga aylantirish yoki ton berishni qo'llash mumkin. Rasmlar va chizmalarni bu formatda saqlashda hech qanday muammolar mavjud emas, ular odatda yaxshi siqiladi va ko'p ranglarni o'z ichiga olmaydi.

JPEG. Web dagi ikkinchi eng mashhur grafika formati JPEG – Joint Photographic Experts Group hisoblanadi. U rang to'g'risida 24-razryadli axborotga ega bo'ladi. Bu GIF formatidagi 256 rangdan farqli o'laroq 16,77 mln. rang deganidir. JPEG da yo'qotishli zichlashdan foydalaniladi. Bu shuni anglatadiki, zichlash jarayonida tasvir to'g'risidagi ba'zi axborot chiqarib yuboriladi, lekin aksariyat hollarda tasvir sifatining yomonlashishi ziyon keltirmaydi va hattoki ko'pincha sezilmaydi ham.

Ranglari uyg'un holda bir-biriga o'tadigan fotosurat yoki ixtiyoriy tasvirlarni JPEG-formatida saqlagan yaxshi, chunki u kichik hajmdagi faylga sig'adigan

tasvirning ancha yuqori sifatini taklif etadi. Shunga qaramasdan, JPEG bir xil rangdagi grafika tasvirlari uchun eng yaxshi qaror hisoblanmaydi, chunki bu format ranglarda xol-xol dog'lar hosil qiladi va so'nggi fayl, odatda, o'shanday tasvir uchun GIF-faylga qaraganda biroz katta bo'ladi.

PNG. Web da doimiy ishlatish uchun raqobatlashayotgan uchinchi grafika formati ham mavjud. Bu ba'zi afzalliklariga qaramasdan 1994 yildan beri u yoki bu jihatdan uncha ko'p foydalanilmayotgan PNG – Portable Network Graphic formatidir. Brauzerlar ichiga o'rnatilgan grafika sifatida PNG formatini endigina qo'llab-quvvatlay boshladi, biroq PNG Web da ommaviy format bo'lish uchun barcha imkoniyatlarga ega. Aynan shuning uchun ham u bu erda «katta uchlik»ka kiritilgan.

PNG yo'qotishsiz zichlash sxemasidan foydalangan holda 8-razryadli indeksasiya qilingan ranglarni, 16-razryadli yarim tonlarni yoki 24-razryadli to'la rangli tasvirlarni qo'llab-quvvatlashi mumkin. Bu tasvirning ancha yuqori sifatini, ba'zan esa GIF formati bilan taqqoslaganda kichikroq hajmdagi faylni ta'minlaydi. Bundan tashqari, PNG fayllari bir necha ajoyib funksiyalarga ega, masalan, gamma koeffisientini boshqarish va shaffoflikning o'zgartiriladigan darajalari (bu fon rasmini tarqoq mayin soyalar orqali ko'rsatishga imkon beradi). Tasvirlar faylining ajrata olishi va o'lchami.

Tasvirni 72 ppi ajrata olish bilan yaratish qulaydir (ekranda taqdim etish uchun bu eng yaxshi variantdir), bunda piksellardagi umumiy o'lchamlarga e'tibor berish kerak. Web da grafika yaratish jarayonida dyuymnlarni umuman ishlatmaslik mumkin. Tasvirning sahifadagi boshqa tasvirlar bilan taqqoslangan o'lchami va brauzer oynasining umumiy o'lchami muhimdir. Masalan, ko'pchilik foydalanuvchilar hamon 640x480 pikseldagi ajrata olishli 14-dyuymli displeylarni ishlatadi.

Ekranning barcha joyini grafika qo'yilmasi bilan to'liq to'ldirish uchun uning kengligini 600 pikseldan oshmaydigan qilish kerak (bunda o'ng va chap tomondagi piksellarning bir qismi oyna uchun va aylantirish yo'li uchun ishlatilishi e'tiborga

olinadi). Sahifadagi boshqa tugmachalar va tasvirlarning o'lchamini 600 pikselli kenglikka ega banerga nisbatan piksellarda o'lchash kerak.

Fayl o'lchami. Shubhasizki, aynan grafika Webni bugungi ko'rinishga olib kelgan. Grafika Web-sahifa uchun tarmoq bo'yicha uzatish vaqtini oshrishini unutmaslik kerak, grafikaning katta hajmi yuklash uchun sezilarli vaqt ketishini anglatadi, bu esa o'quvchining sabrini, ayniqsa u standart modem bog'lanishidan foydalangan holda aloqani bog'layotgan bo'lsa sinaydi. Ushbu munosabatda Web-dizayner uchun yagona eng muhim qoida bor: grafika tasviri faylining o'lchami imkon qadar kichik bo'lishi kerak! Tarmoq bo'yicha uzatishga mo'ljallangan tasvirlarni yaratish ishlab chiquvchilar uchun yuklash vaqti muammosiga jiddiy yondashish mas'uliyatini yuklaydi.

II. BOB. «ORIGINAL» SUPERMARKETINING WEB SAYTINI YARATISH

2.1. «ORIGINAL» SAVDO SUPERMARKETINING WEB SAHIFASI STRUKTURASINI TAXRIR QILISH.

WWW- kompyuter tarmoqlarida kerakli ma'lumotni ko'rishni gipermurojaat deb ataluvchi usul bilan kompyuter tarmoqlarida joylashtirish usuli WWW-World Wide Web nom Tim Berusers-Lee (CERN laboratoriyasi) tomonidan kiritilgandir. U boshqacha qilib, butun dunyo «o'rgimchak turi» deb ham ataladi. Buning sababi, o'rgimchak yashashi uchun turli yangi yo'llar tashkil qilib, bu yo'llar orqali turli nuqtalarga yurishiga o'xshab WWWda ham turli yo'llar orqali tegishli ma'lumotga etib borish va uni ko'rish imkoniyati borligidir. WWWda nuqtalar rolini kompyuter o'ynaydi. Yo'llar sifatida telefon yo'llari ishlatiladi. Web sahifalar, odatda, HTML hujjat, ya'ni HTML (Hyper Text Markup Language-gipermatnni belgilash tili) tilida yozilgan hujjat sifatida tayyorlanadi.

Bu holda yozilgan hujjatlarni tabiiy ko'rinishda (keng ommaga tushunarli bo'lgan) kompyuter ekranida tasvirlash uchun maxsus dasturlar ishlatiladi. Bunday dasturlar Browser (ko'ruvchi, sharhlovchi)lar deb ataladi.

WEB sahifani yaratishga tayyorgarlik.

Web saytga joylashtirish uchun matnli ma'lumotlarni yig'ish: ma'lumotlar buyurtmachi "ORIGINAL" savdo supermarketi tomonidan olingan bo'lib ular bergan ma'lumotlarga asoson web sahifa irearxiyasi taxrir qilinadi. Masalan "ORIGINAL" savdo supermarketining tovarlari, hamkorlari, ustavidan namunalar, mijoz shartnomasi, doc, xls, pdf va boshqa ko'rinishdagi hujjatlar bo'lishi mumkin.

Grafikli ma'lumotlarni tayyorlash, chizmalarni va rasmlarni (o'lchamini 10-30 Kbaytgacha keltirish, formatlarni o'zgartirish, va h.k). taxrirlash lozim. Bizning ishimizda buyurtmachi "ORIGINAL" savdo supermarketining maxsulotlaridan namuna sifatifda tayyorlangan animatsiyalar, "ORIGINAL" savdo supermarketining binolaridan namuna sifatida olingan suratlarni loyixalash lozim bo'ladi

Murojaatlar bo'yicha ma'lumotlarni to'g'ri joylashtirish uchun blok tuzish lozim. Blok yaratishda sahifa bir necha qismdan iborat bo'ladi.

Minyular paneli	
Banner	
	Reklama, animatsiya va boshqa ma'lumotlar uchun
Ko'makchi portallar uchun bog'lar	

2.1. Rasm

Dizaynlarni ishlab chiqish. Sahilarni dizaynini ishlab chiqishda fonga turli formatidagi tasvir ishlatiladi. Banner yaratishda sayt mazmuniga etibor berish lozim, masalan tashkilotning nomi; “ORIGINAL” savdo supermarketi va sohaga tagishli rasmlardan foyalanish maqsadga muvoffiq bo'ladi.

Strukturasi. Xujjat o'lchami bo'yicha kam joy talab etadigan bo'lishi kerak. Xujjatning o'lchami uchun ikkita yuqori chegara mavjud. Bulardan biri, uzun xujjat uzatilishida ko'p vaqt talab etiladi, shuning uchun ham o'quvchi unga tez kirib va o'zi xohlagandek orqaga tez qaytishda qiyinchilik tug'iladi. Bu ko'pincha, albatta ma'lumot uzatish tezligiga bog'liq.

Qoida bo'yicha, tashrifchilar bir vaqtning o'zida bir necha betni o'qishga qodir emaslar. Ular ko'pincha birinchi betdagi ma'lumotni o'qib ko'rishadi, agar u yoqmasa, qolgan qismlarni varaqlash ularga zerikarli kechadi. Shuningdek tashrif buyuruvchilar xujjatning boshidayoq undan chiqib ketishlari mumkin.

Hujjatning ulchami bo'yicha quyidagilarga asosan e'tibor qaratish kerak bo'ladi:

- 📄 Boshqa ma'lumotlarga ruxsat beruvchi online help, menular uchun 24 chiziqdan o'shmagani ma'qul
- 📄 Matnli xujjatlar uchun-A4 formatda taxminan 2.5 varaq atrofida.
- 📄 Hajm ekvivalentida 1 betdagi ma'lumot 1 megabaytdan oshmasligi kerak, bunga grafik ma'lumotlarni kamaytirish va uning hajmini qisqartirish orqali oson erishish mumkin.

Sarlavha. Har qanday hujjatning faqat bitta sarlovhasi bo'lishi mumkin. U hujjat mazmunini keng kontekstli ma'noda identifikasiya qilib berishi kerak. Sarlavha hujjat matnining qismi hisoblanmaydi, lekin u butun hujjatga ta'luqli. Unda murojaatlar, paragraflar belgisi yoki chiziqlar bo'lishi mumkin emas.

Sarlavha uzunligiga cheklashlar mavjud emas (qaysikim ular, avtomatik tarzda boshqa berilmalardan generatsiya qilingan bo'lishi mumkin), lekin xabar beruvchi provayderlar shuni esda tutishlari kerakki, juda uzun sarlovhalar kesib tashlanishi mumkin.

Hujjatni testlash. Qaysidir ma'noda sayt taxrirlanishi mumkin bo'lgan kitobga uxshash. Xuddi shunday tekshirilishi kerak bo'lgan dasturga ham uxshashi mumkin. Eng kamida, qaysidir guruh odamlar, saytdagi xatolarni tuzatish va unga ishlov berish uchun ma'lumotni o'qishi zarur.

Izlash tizimida ro'yxatdan o'tish. Saytni domenga joylashtirgandan so'ng, albatta zudlik bilan quyidagi www.yahoo.com; www.yandex.ru; www.google.com, www.uz izlash tizimlaridan bir nechasida ro'yxatdan o'tish zarur bo'ladi. Bu Internet tarmog'idagi foydalanuvchi sizning saytingizni ushbulardan topish imkoniga ega bo'lsin (Tashkilot nomi nomi, manzili va h.k.) uchun kerak bo'ladi.

Bosh sahifa. Bosh sahifa biror subyektning, shaxs yoki tashkilotlarning borligi belgisi bo'lgan Web sahifadir. Odatda asosiy sahifa shaxsning rasmi, uning tarjimai holi, mutaxassisligi va boshqa ma'lumotlarni aks ettiradi. Tashkilotlarda esa uning nomi, tuzilishi va faoliyati bilan bog'liq bosh ma'lumotlar bo'ladi. Masalan "Orginal" savdo supermarketining pasporti.

Maqsadga movoffiq yaratilgan sayt aniq maqsadga ega bo'lib foydalanuvchi uchun qulay bo'lishi kerak. Saytga tashrif bo'yurgan foydalanuvchi qidirgan ma'lumotini topa olsin. Yaratilayotgan sayt tovar va xizmatlar reklamasi uchun muljallangan bo'lsa saytdan foydalanayotgan kishi qidirgan ma'lumotlarini topa olsin.



2.2. Rasm

Loyxalashtirilayotgan saytda taxminan quyidagicha bo'limlar bo'ladi: Asosiy sahifa, tovarlar, hamkorlar, bog'lanish agar lozim bo'lsa sayt xaritasi, maqsadga qarab va boshqa sahifalar bo'lishi mumkin. Tovarlar sahifasida taklif


qilinayotgan maxsulotlar haqida ma'lumotlar berilishi lozim, hamkorlar bo'limida esa tashkilot, muassasa, va h.k.larning homkorlari haqida ma'lumotlar joylashtirish mumkin. O'z-o'zidan ma'lumki tovar va xizmatlar taklif qilayotgan tashkilot mijozlari bilan oson aloqa qilishni istaydi, shu maqsadda saytda bog'lanish mumkin bo'lgan yullar haqida ma'lumot beruvchi, bog'lanish bo'limini tashkil qilish lozim bo'ladi.

Agar tashkilot, muassasa, va h.k.lar o'zlari haqida maqola e'lon qilishmoqchi bo'lishsa aytaylik "Biz haqimizda" deb nomlangan sahifa tashkil qilishlari mumkin.

2.2. WEB SAYT YARATISHDA MACROMEDIA DREAMWEAVER IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH.

Dreamweaver dasturini ishga tushirish uchun quyidagi kadamlarni bajarish kerak: Pusk > Программы > Macromedia > Macromedia Dreamweaver.

Dasturning ishchi sohasini har qanday foydalanuvchi didiga va tajribasiga mos ravishda sozlab olishi mumkin.



2.3. Rasm.Dreamweaver dasturining interfeysi.

Ishchi sohaning asosiy tashkil etuvchilari quyidagilar hisoblanadi:


- Hujjat oynasi - tahrirlanayotgan hujjatni ko'rsatadi.
- Ob`ekt palitrasi (Insert) - turli xil tipdagi ob`ektlarni (rasmlar, jadvallar, maxsus simvollar va boshqalar) sahifada tezda joylashtirish uchun xizmat qiladigan tugmalarga ega;
- Xususiyatlar palitrasi (Properties) - belgilangan matn yoki ob`ekt xususiyatlarini ko'rsatadi va ularni tahrirlash imkonini beradi.
- O'zgaruvchan palitralar (Floating Palettes)- oynalar, inspektorlar va palitralarni umumiy bloka birlashtirish uchun xizmat qiladi.

Ob`ektlar palitrasi quyidagi bo'limlarga ega:

- Characters - maxsus simvollarini sahifaga o'rnatish va simvollarini tanlov asosida o'rnatish imkonini beradi;

- Common - rasm, jadval, Flash kliplari, Shochweve, Java apletlari va boshqa ko'p ishlatiladigan ob'ektlar;
- Forms - shakllar va boshqarish elementlarini yaratish;
- Frames - sahifada ko'p qo'llaniladigan freymlar tuzilishlarini o'zida saqlaydi;
- Head - sahifa sarlavhasi teglari: META, KEYWORDS va Base, Refresh va boshqalar;

HTML sahifada hujjat sarlavhasi (Head) va tanasini (Body) ajratib ko'rsatish mumkin. Sarlavhada, asosan sahifa to'g'risidagi ma'lumotlar saqlanadi va ularning ko'pchiligi Web-sahifa ko'rinishiga ta'sir qilmaydi. Sarlavhadan tashqari barcha ma'lumotlar sahifa tanasida joylashtiriladi va ekranda ko'rinadi.



2.4. Rasm. Sahifa sarlavhasi va tanasi aniq ketma-ketlikda joylashtiriladigan maxsus teglar bilan aniqlanadi.

Sahifaning HTML-kod tuzilishi.

< HTML >

< Head >

“ORIGINAL” SAVDO SUPERMARKETI

</ Head >

< Body >

Bu erda joylashtirilgan barcha ma'lumotlar Web-sahifada akslantiriladi.

</ Body>

</ HTML>

Tuzilishi jihatdan to'g'ri HTML-kod < HTML> tegdan boshlanadi. Ochilgan < Head > tegi va yopilgan < \Head > tegi sarlavha bo'limini tashkil etadi. Sarlavha tarkibiga hujjat haqidagi boshlang'ich ma'lumotlar kiritiladi. HTML-faylning asosiy qismi hujjat tanasidir va u < Body> va </ Body> teglari yordamida tashkil etiladi. Bu teglar orasida brauzer oynasida ko'rsatiladigan barcha ma'lumotlar joylashtiriladi. HTML-kod yopiladigan </ HTML> teg orqali tugallanadi.

Dreamweaver dasturida yangi sayt yaratish tartibi:

1. Site menyusidan NewSite buyrug'ini bajaring.
2. Advanced bo'limiga o'ting. Site Name maydoniga yaratiladigan sayt nomini kiriting. Masalan, My Site.
3. Local Root Folder maydonida sayt papkasini ko'rsatish kerak. Maydon yonidagi papka rasmini sichqoncha yordamida ishlatting.
4. Ochilgan muloqot oynasidan sahifa fayllari saqlanadigan papkani tanlang.
5. Papka ro'yxatidan Moi dokumenty papkasini tanlang.
6. Sichqoncha yordamida yangi papka yaratish piktogrammasini ishlatting.
7. Papka nomini kiriting (lotin alifbosi harflari bilan ismingizni kiriting). Enter tugmasini bosing.
8. Yangi papkaga kirish uchun uning ustida sichqoncha tugmasini ikki marta bosing.
9. Soxranit tugmasini ishlatting. Saytning lokal papkasi tanlandi.
10. HTTP Adress maydoniga hech narsa kiritmang. Enabled Cache dan bayroqchani olib tashlamang.
11. OK tugmasini bosing. Yangi sayt yaratildi.
12. Site (sayt fayllari) oynasini ishga tushiring. Buning uchun Window menyusidan Site palitrasini tanlang.

13. Sayt fayllari bilan ishlash uchun Windows dagi «Provodnik» oynasiga o'xshash oyna ochiladi.

14. Yangi fayl yaratamiz. File menyusidan New File buyrug'ini bosing.

15. Ekraning o'ng qismida yangi HTML-faylning piktogrammasi paydo bo'ladi va uning nomi Untitled 1.htm bo'ladi.

16. Bu nomni index.htm ga o'zgartiring. Buning uchun sichqoncha tugmasini fayl nomi ustida ikki marta bosing.

17. Saytimizning barcha grafik ob'ektlari uchun yangi papka yaratamiz. Buning uchun File menyusidan New Folder buyrug'ini bajaramiz va papkaga Images nomini beramiz.

18. index.htm faylini oching. Buning uchun Site oynasidagi fayl nomi ustida sichqoncha tugmasini ikki marta bosing.

19. Bir vaqtda kod va dizaynni ko'rsatuvchi muhitga o'ting. Buning uchun View menyusidan Code and Design buyrug'ini bajaring. Sahifada hech narsa bo'lmasa ham HTML-kod sahifa haqidagi ayrim ma'lumotlarni o'zida saqlaydi.

20. Hujjat oynasidagi yopish tugmasini bosgan holda, HTML-fayl oynasini yoping. Yuqoridan ikkinchi yopish belgisini ishlating, chunki birinchi tugma Dreamweaver dasturi oynasiga tegishlidir.

Sahifa parametrlarini o'rnatish

1. Ishlash uchun saytni faollashtiring. Buning uchun Site palitrasidagi ro'yxatdan saytingiz nomini tanlang.

2. index.htm fayli bilan ishlash uchun uning ustida sichqoncha tugmasini ikki marta bosing.

3. Kirill alifbosidagi harflarning to'g'ri ko'rinishini saqlang. Buning uchun Edit menyusidan Preferences buyrug'ini tanlang.

4. Fonts bo'limiga o'ting. Buning uchun bo'lim nomi ustida sichqoncha tugmasini bosing.

5. Font Settings ro'yxatidan Cyrillic qiymatini tanlang.

6. New Document kategoriyasiga o'ting.

7. Default Encoding ochiluvchi ro'yxatidan Cyrillic (Windows 1251) ni tanlang.

8. OK tugmasini bosing.

9. Sahifaning ixtiyoriy qismida sichqonchi o'ng tugmasini bosing va hosil bo'lgan kontekst menyusini Page Properties buyrug'ini tanlang.

10. Title maydoniga sahifaning sarlavhasini kiriting (Mening birinchi Web-sahifam).

11. Document Encoding – ochiluvchi ro'yxatdan Cyrillic (Windows 1251) ni tanlang.

12. OK tugmasini bosing.

Matnni formatlash

Mavzuga oid barcha fayllar Source katalogida keltirilgan. (C: /Web design/ Source).

1. Source papkasidan teor5.doc faylini ishga tushiring. Hozir bu hujjatdagi barcha matnli ma'lumotlarni Web-sahifaga ko'chiramiz. Microsoft Word dasturini yopmang. (faylni yopmang).

2. Dreamweaver dasturini ishga tushiring.

3. Site palitrasida yuqorida yaratilgan sayt (My Site) nomi tanlanganiga ishonch hosil qiling.

4. Yangi sahifa yarating (File>New...) va uni teor 5.htm nomi bilan xotirada saqlang.

5. Windows muammolar paneli yordamida (Alt+Tab) Word dasturi oynasiga o'ting.

6. Pravka<Videlit vse buyrug'i yordamida barcha matnni belgilang.

7. Pravka>Kopirovat buyrug'i yordamida matnni buferga nusxalang.

8. Dreamweaver dasturi oynasiga o'ting. (Alt+Tab)

9. Design muhitida Web-sahifaning boshida kursorni o'rnatish.

10. Edit>Paste buyrug'i yordamida joriy sahifaga buferdagi matnni o'rnatish. Web-sahifaga matn o'rnatildi, lekin matn hech qanday formatga ega

emas. Boshqa dasturdan nusxalangan matnni Dreamweaver mustakil ravishda formatlay olmaydi.

Ushbu sahifa HTML-kodiga e'tibor bering (buning uchun Code and Design muhitini ishga tushiring). O'rnatilgan matnning har bir qatori
 tegi bilan tugagan bo'lib, matnda abzats yo'q. Shuning uchun formatlashni matnni abzatlarga bo'lishdan boshlash kerak.

11. Matndagi abzatclarni aniqlaymiz. Buning uchun quyidagi amallarni bajaramiz. Kursorni abzats o'rnatiladigan joyga keltirib, Enter tugmasini bosamiz va bo'sh qatorni o'chirish uchun Del tugmasi bosiladi.

12. Joriy sahifa matnidagi barcha abzatclarni aniqlang. Ish davomida sahifani xotirada saqlashni esdan chiqarmang. (File>Save)

13. Sahifa boshiga utib, sichqoncha yordamida «Stcenarii na storone servera» matnini belgilang va xusisiyatlar paneli yordamida ochiluvchi ro'yxat – Format dagi Heading2 qiymatini o'rnating.

14. Xuddi shunga o'xshash har bir serverli dasturlash tillari nomlari (Perl, ASP va boshqalar) uchun ham ochiluvchi Format ro'yxatiga Heading3 qiymatini o'rnating.

15. Shriftni o'rnatuvchi ro'yxatdagi barcha sarlavhalar uchun “Arial, Hevetica...” ni, asosiy matn uchun esa “Verdana...” ni kiriting.

16. Asosiy matn uchun Size – ochiluvchi ro'yxatidagi 3 o'lchamini o'rnating.

17. Sarlavhalar uchun rangni tanlash uchun mo'ljallangan ochiluvchi ro'yxatdan rang tanlang.

18. Bosh menyudan Modify>Page Properties buyrug'ini bajaring.

19. Hosil bo'lgan muloqot oynasidagi Background maydonida sahifa foni uchun rang tanlang.

20. Text maydonida sahifaning asosiy matni uchun rang tanlang. Rangni tanlash jarayonida Apple tugmasi yordamida oynani yopmasdan rangni o'rnatib, baxolashimiz mumkin. Page Properties oynasida ishni tugallash uchun OK tugmasini bosang.

21. «B» va «I» tugmalari yordamida didingizga qarab, matn ostiga chizishni o'zgartiring.

22. Sarlavhalar tekislanishini o'rtadan va asosiy matn uchun esa ikki tomondan tekislanishni o'rnatish.

23. Sahifani xotirada saqlang. (File>Save).

Webda «Navigatciya» foydalanuvchiga (joriy) turgan joylarini aniq bilishlariga, qaerga harakatlanish yunalishiga va yana qaergadir o'tishlariga yordam berishi kerak.

Web ning eng asosiy xususiyatlaridan biri bu gipermatnni ishlatishdir.

Gipertekst – gipermatn va gipermedia (kitob, lektciya).

Hujjatlar ichidagi murojaatlar.

Bunday gipermurojaatlar asosan bir hujjat (Web-sahifa) chegarasida bir bo'limdan ikkinchi bo'limga tezda o'tish uchun mo'ljallangan.

Bu turdagi gipermurojaatlar ikki bosqichda yaratiladi:


1. Web-sahifa matnida maxsus kurinmas belgilarni qo'yish (anchor). Bunday belgilar faqat gipermurojaat buyicha o'tish mo'ljallangan joylarga qo'yiladi.

Belgi qo'yish quyidagicha bajariladi:

2. Belgi buyicha gipermurojaat yaratish.

<A> tegining HREF atributida belgi nomi qiymat sifatida ishlatiladi.

Hamkorlarimiz



2.5 rasm. Macromedia Dreamweaverda hujjatlar ichidagi murojaat yaratish


Boshqa Web-sahifa yoki ob`ektga murojaat o`rnatish uchun quyidagi konstruktciyadan foydalaniladi:

`<A HREF="fayl nomi" > Boshqa sahifaga murojaat </A>`

Murojaatning ishlashi fayl nomining to`g`ri kiritilishiga bog`liq.

Macromedia Dreamweaver da hujjatlar orasidagi murojaatlar yaratish.

1. Gipermurojaat bo`lishi kerak bo`lgan ob`ekt belgilanadi.
2. Link maydonining o`ng tomonidagi papka belgisini bosib, ushbu gipermurojaatga bog`lanadigan fayl tanlanadi.



2.6 rasm. Bog`lamalar yaratish.

Absolyut va nisbiy yo`llar.

Tashqi ob`ektlarga o`tish yo`lining uch tipi mavjud:

1. Absolyut yo`l:
(masalan, `http://www.Savdogarbank.uz`);
2. Kurilayotgan hujjatga nisbatan yo`l:
(masalan, `dreamweaver/contents.html`);
3. Ildiz papkaga nisbatan yo`l:
(masalan, `/support/dreamweaver/contents.html`).

Absolyut yo`l

Absolyut yo`lga murojaat – bog`langan hujjatning to`liq URL manzili hamda foydalanilgan protokol kiradi (asosan `http://` - Web-sahifa uchun).

Masalan,

`<A HREF="http://www.hamkorlarimiz.html"> absolyut murojaat </A>`

Agar hujjat boshqa serverda joylashgan bo'lsa, unda absolyut murojaatlardan foydalanish kerak.

Sayt joylashgan server yoki sayt tuzilishi o'zgargan vaqtda bu murojaatlar ishlamaydi.

Hozirgi kunda tarmoqlarda ikki asosiy grafik format qo'llanadi: GIF va JPEG (yoki JPG). Bu grafik formatlarda illyustratsiyalangan sahifalarni barcha keng tarqalgan brauzerlar tushunadi va to'g'ri tasvirlaydi. Bu formatlarning har biri o'z ustunliklari va kamchiliklariga ega, bu ularning qo'llanish sohasini aniqlaydi, ular orasidagi farqni tushunish o'z navbatida sayt sahifalarini grafik bezash ishlarini osonlashtiradi.

GIF89a formati GIF87a formati standartiga to'g'ri keladi. Bundan tashqari, rangning tiniqligi (transparency), satrlararo yuklanish (interlaced) va animatsiya kabi yangi imkoniyatlar bilan to'ldirilgan.

Rangning tiniqligi orqali har qanday fonga qo'yib bo'ladigan ixtiyoriy tasvirlar yaratish mumkin. GIF89a da oddiy animatsiyaning qo'llanilishi tasvirlar ketma-ketligini berilgan vaqt oralig'ida teiklik qaytarishi mumkin.

JPEG (Joint Photographic Experts Group) grafik formati (qisqartirilgan holda JPG) ko'p rangli tasvir fayllarini tarmoqda ishlatish uchun mo'ljallangan bo'lib, foydalanish darajasi bo'yicha ikkinchi o'rinda turuvchi grafik format hisoblanadi.

JPEG rang palitrasi 16 777 216 (True Color)tagacha bo'lgan rangni saqlaydigan tasvirlarni siqish imkoniyatini beradi. Bunday siqish tasvirning sifati yo'qolishi (lossy compression) hisobidan sodir bo'ladi.

GIF va JPEG grafik formatlari bilan ishlashda quyidagilarni yodda tutish muhimdir.


- Natijalanuvchi GIF-fayl o'lchami palitradagi ranglar soniga bog'liq. Palitradagi ranglar qancha kam bo'lsa, siqish darajasini shuncha katta berish mumkin va yakuniy fayl o'lchami ham shuncha kichik bo'ladi.

- Natijalanuvchi JPEG-fayl o'lchami tasvirning mayda detallar bilan to'ldirilganiga bog'liq bo'ladi. Ular qancha ko'p bo'lsa, siqish darajasini shuncha katta berish mumkin, va yakuniy fayl o'lchami ham shuncha kichik bo'ladi.

- Hech qachon JPEGda tasvirning oraliq variantlarini saqlamang, nusxalarni boshqa formatlarda saqlang. Biror bir o'zgartirish kiritish kerak bo'lsa, o'sha nusxalarni ishlating.

- Hech qachon tasvirni GIF dan JPEGga va aksincha, o'tkazmang. Bunday harakatlarda to'g'ri siqish imkoniyati kamayadi, tasvirning va rang berishning yomonlashuvi yuz beradi.

- Chekli sondagi ranglardan foydalanilgan, biroq bir xil rangli sohalarning kattaligi va bir rangdan ikkinchisiga o'tishda chegaralarning aniqligini saqlovchi tasvirlarni GIF texnologiyasi orqali siqish JPEG dagiga qaraganda yaxshiroq bo'ladi va natijadagi fayllar esa kichik o'lchamda bo'ladi. Agar bunday tasvirlar JPEG da siqilsa, ranglar xira bo'ladi va natijadagi fayl o'lchami kattaroq bo'ladi. Masalan: ``



2.7 rasm. Rasm joylashtirish

- Ko'p sonli mayda detallardan tashkil topgan fototasvirlar va plutonli tasvirlarni JPEG texnologiyasi orqali siqish GIF dagiga qaraganda yaxshiroq va natijadagi fayllar esa kichik o'lchamda bo'ladi. Agar bunday tasvirlar GIF da siqilsa, ranglar xira bo'ladi va natijadagi fayl o'lchami kattaroq bo'ladi.

HTML da jadval strukturasi

Jadvalni shakllantirishda asosan 3 ta tegdan foydalaniladi: <TABLE>, <TR>, <TD>.

Ochiladigan va yopiladigan <TABLE> tegi mos holda jadvalning boshi va oxirini bildiradi. <TABLE> tegi tarkibida quyidagi atributlar bo'lishi mumkin. <TABLE> tegi atributlari.


Ochiladigan va yopiladigan <TR> tegi jadval qatorini bildiradi. <TR> tegi atributlari.

Ochiladigan va yopiladigan <TD> tegi jadvaldagi aniq birta yacheykasini bildiradi. <TD> tegi atributlari.

Misol.

2 ta qator va 2 ta ustundan iborat jadval.

```
<table>
<tr>
<td width="226" valign="top"><p>OOO «ORIGINAL SUPERMARKET»
</p></td>
</table>
```




2.8 Rasm. Jadvallar yaratish.

Macromedia Dreamweaver vositalarida jadvallar bilan ishlash

Jadvalni o'rnatish uchun quyidagilarni bajarish kerak:

1. Kursorni Web-sahifaning kerakli joyiga o'rnatish kerak.
2. Ob`ektlar palitrasidagi jadval tasvirlangan tugmani bosish yoki Insert (Vstavka) menyusidan Table punktini tanlash kerak.
3. Paydo bo'lgan muloqot oynasiga jadval parametrlarini kiritish kerak:

- Rows – jadval qatorlari soni;
- Columns – ustunlar soni;
- Width – brauzer oynasi kengligiga nisbatan jadvalning piksellarda yoki foizlardagi kengligi (o'ngdagi ro'yxatdan o'lchov birliklari tanlanadi);
- Border – jadval ramkasi kalinligi;
- Cell Padding – jadval yacheykasi chegarasi va uning matni orasidagi masofa;
- Cell Spacing – jadvalning kushni yacheykalari orasidagi masofa.



2.9 Rasm. Yacheykalar o'lchamini loyxlash.

Izox.


1. Agar jadval kengligi piksellarda berilgan bo'lsa, ekranning har qanday ruxsat etilgan hajmida jadval foydalanuvchi ekranida aniq bir joyni egallaydi. Masalan, siz jadval kengligini 780 piksel deb kiritsangiz, 640x480 hajmli ekranga jadval sigmaydi va brauzer oynasining pastida aylantirish chizigi paydo bo'ladi; 1600x1200 hajmli ekranda esa jadval ekranning yarmidan kamroq joyini egallaydi. Agar jadval kengligini foizlarda bersangiz, qanday hajmli ekran bo'lishidan kat'iy nazar, jadval siz kiritgan foizda ekranni egallaydi.

2. Agar yacheyka tarkibi yacheyka devorlariga yopishib turishini xoxlasangiz, Cell Padding parametriga nol qiymatini kiritishingiz lozim. Agar «0» ni kiritmasangiz, brauzer avtomatik tarzda 1 pikselni qabul qiladi va yacheyka devorlari va uning tarkibi orasida masofa paydo bo'ladi. Jadval yacheykalari tarkibi matn bo'lsa, bu hol odatiy. Lekin siz oldindan bo'laklarga bo'lingan rasm joylashtirgan bo'lsangiz, tasvir qismlari orasida minimum 2 piksel masofa paydo bo'ladi. Bu sizga yoqmasa kerak.

3. Cell Spasing parametriga biror son kiritmasangiz jadval yacheykalari orasidagi masofa 2 pikselga teng bo'ladi, agar yacheykalar bir-biriga yopishib turishini istasangiz bu parametrga nolni kiritishingiz lozim.

Jadval yaratishda kiritilgan barcha atributlarni Properties palitrasi yordamida o'zgartirish mumkin. Bundan tashqari, yuqorida aytib o'tilganlardan boshqa yana bir necha foydali parametrlarni ham kiritish mumkin:

- 1.Align – jadvalni sahifada tekislash:Left (chapga), Right (o'ngga), Center (markazga), Default
2. Bg Color va Bg Image jadvalga fon tasviri va fonni bo'yash rangini tanlashga mo'ljallangan.
3. Brdr Color – jadval chegarasi rangi.




2.10. Rasm. Jadvallar uchun stil yaratish.

Shunday qilib, jadvalning biror bir xususiyatini o'zgartirish uchun:

1. Jadvalni belgilab oling (alohida elementlarini emas).
2. Properties palitrasi maydoniga kerakli o'zgartirishlarni kiriting.

Jadvalning alohida yacheykalari bilan ishlash

Shu paytgacha biz faqat jadval parametrlari haqida aytib o'tdik. Jadval bilan ishlashdan alohida yacheyka bilan ishlashga o'tish uchun kursorni jadval ichida kerakli joyga joylashtirish kerak. Bunda ob'ekt Properties palitrasi yana o'zgaradi.



2.11. Rasm. Jadvallar uchun stil yaratish.

Yacheyka matni formatini o'zgartirish uchun:

1. Matnning kerakli qismini belgilang.
2. Properties palitrasi maydoniga kerakli o'zgartirishlarni kiriting.

Cell yozuvining chap pastki qismida yacheykalarni birlashtiruvchi (chap) va buluvchi (o'ng) tugmalar joylashgan.

Dreamweaverda taklif qilinayotgan freymlarning standart to'plami sizga zarur sahifa tuzilmasini tashkil qilishga yordam beradi. Ob'ektlar panelining **Frames** (Freymlar) bo'limida freymlarning standart to'plami tugmalari joylashgan.

Tanlangan to'plam joriy hujjatni kamrab oladi, ya'ni, o'sha vaqt kirish nuqtasi joylashgan hujjat. Freymlar standart 3.10 rasm. to'plami **belgisining xavorang sohasi** ayni paytda belgilangan sahifani yoki hujjatdagi freymni, **ok soha** esa – yangi freym yoki freymlarni bildiradi.

Freymlarning standart to'plami o'rnatish uchun:

1. To'plamga kiritmokchi bo'lgan hujjatga kiritish nuqtasini joylashtiring.
2. Panellar ob'ektining **Frames** bo'limidan freymlarning standart to'plamini tanlang. To'plamga kiritish uchun uning tugmasini bosishingiz yoki tugmani hujjatga o'tkazishingiz mumkin.

Freymlar va freymlar to'plami HTML ning alohida hujjatlari hisoblanadi. Freymlarni o'zgartirish uchun uni belgilash lozim. Buni hujjat oynasida yoki **Frames** palitrasi yordamida qilishingiz mumkin.


Freymlar yoki freymlar to'plamini belgilayotgan paytda **Frames** palitrasi va hujjat oynasida belgilash chiziqlari paydo bo'ladi.

Frames palitrasi xayolan hujjatning freymlarini tasvirlaydi. **Frames** palitrasidan freymlar yoki freymlar to'plamini tanlashingiz, so'ngra uni kurish yoki **Properties** (Xusiyatlar) palitrasida belgilangan element xususiyatlarini qayta tahrirlashingiz mumkin.

Frames palitrasi freymlar to'plami ierarxiyasini ko'rsatib turadi. **Frames** palitrasida freymlar to'plamini kalin 3 o'lchamli chegara o'rab oladi, Freymlar esa mayin kulrang chiziq bilan uralgan, har bir freym esa o'z ismiga ega.

Freym xususiyatlarini sozlash

Properties (Xususiyatlar) palitrasi alohida freymning xususiyatlarini o'rnatish yoki o'zgartirish uchun foydalaniladi. Freym xususiyatlarni ko'rish uchun, **Properties** (Xususiyatlar) palitrasining pastki burchagidagi yunalishli tugmani bosib.



2.12 Rasm.

Freym xususiyatlarini aniqlash uchun:

1. **Frames** palitrasidan freymni tanlang.
2. Xususiyatlar palitrasining **Frame Name** (Freym nomi) maydonida freymga nom bering.
3. Quyidagi sozlashlarni o'rning:
 - Src** maydonida mana shu freymda boshidan tasvirlanadigan sahifa faylini tanlang. Faylni topish va belgilash uchun fayl nomini kiriting yoki papka belgisini bosib.
 - Joriy freym tarkibini tasvirlashda muhit etishmasa, **Scroll** ro'yxati aylantirgich chizigining paydo bo'lishini ta'minlaydi. Ko'pgina brauzerlar Auto sozlashidan foydalanishadi.
 - No Resize** bayroqchasi joriy freym o'lchamlarini chegaralaydi va foydalanuvchiga uning chegaralarini o'zgartirishni ma'n qiladi. Siz har doim hujjat oynasida freym o'lchamlarini o'zgartirishingiz mumkin. Biroq, bu sozlash o'rnatilgan bo'lsa, foydalanuvchi brauzerda freym o'lchamlarini o'zgartira olmaydi.
 - Borders** ro'yxati joriy freym ramkasi tasvirini boshqaradi. Mumkin bo'lgan sozlashlar: Yes, No, Default. Bu xususiyat freym to'plami uchun aniqlangan ramka xossalarni o'zgartiradi. Ko'pgina brauzerlar avtomatik tarzda Yes ni ishlatadi.
 - Border Color** maydoni joriy freymning hamma ramkalari uchun rangni o'rnatadi. Bu sozlash freymlar to'plami ramkasining rangining o'rnini bosadi.


-**Margin Width** maydoni chap va o'ng maydonlarning kengligini piksellarda o'rnatadi (freym ramkasi va uning orasidagi bo'shliq).

- **Margin Height** maydoni pastki va yuqori maydon balandligini o'rnatadi (freym ramkasi va uning orasidagi bo'shlik).

Freymlar to'plami xususiyati

Freymlar to'plami xususiyatlarini kurish uchun:

1. **Frames** palitrasida freymlarni kamrab oladigan chegarani bosing.
2. Freymlar to'plamining hamma xususiyatlarini kurish uchun **Properties** (Xususiyatlar) palitrasining pastki o'ng burchagidagi yunalishli tugmani bosing.



2.13 Rasm.

Freymlar to'plamining xususiyatini aniqlash uchun:

1. Freymlar to'plamini tanlang.
2. **Borders** (Ramkalar) ro'yxatida hujjatni brauzerda kurish vaqtida freym ramkalarni tasvirlash mumkinmi yoki yo'qligini ko'rsating.

Quyidagilarni o'rnatish:


- **Yes**, ramkalar tasvirlanadi.
 - **No**, ramkalar tasvirlanmaydi.
 - **Default**, foydalanuvchi brauzeri ramkalar tasvirlanishini o'zi tanlaydi.
3. **Border Width** (Ramka kengligi) maydoniga joriy freymlar to'plami ramkalarining kengligini kiriting.
 4. **Border Color** (Ramka rangi) maydoniga 16 lik ranglarni kiriting yoki ochiladigan palitradan ramkaning rangini tanlang.
 5. Freym o'lchamini belgilash uchun **Row Col Selection** (qatorni/ustunni belgilash) sohasini bosing (qatorni tanlash uchun) yoki yuqori qismdagi ilovani bosing (ustunni tanlash uchun). So'ngra **Value** (Qiymat) maydonida belgilangan qator yoki ustunning qiymatini kiriting.

2.3. ZIYONET TARMOG'IDAN FOYDALANIB WORD PRESSDA SAYT YARATISH VA MA'LUMOTLAR JOYLASHTIRISH.

Jamiyat rivojining bugungi bosqichi bevosita texnologiyalarning takomillashuvi bilan xarakterlanadi. Zamonaviy texnologik jarayonlar har qanday sohaga o'z ta'sirini o'tkazgani kabi, axboortuzatish tizimiga ham tobora yangi o'zgartirishlar olib kirilmoqda. Internet ayni davrda dunyo bo'yicha jadallik bilan global auditoriyani egallab bormoqda. Binobarin, bugun internet o'zida barcha sohalar imkoniyatlarini mujassam etmoqda. Ziyonet sayti keng imkoniyatlarga ega, undan unumli foydalanishni istagan foydalanuvchi avval ro'yxatdan o'tishi lozim.

ID.UZ sayti Ziyonet loyixasi asosida yagona avtorizatsiya tizimini yaratish maqsadida ishlab chiqilgan. Saytdan foydalangan holda siz erkin ravishda ro'yxatdan o'tish va avtorizatsiyadan o'tgan holda "UZINFOCOM" kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish va tadbiq etish markazining barcha loyixalaridan foydalanish mumkin.

Ruyxatdan o'tish uchun "Ruyxatdan o'tish" ishoralarining biri bo'ylab keyingi sahifaga o'ting .



2.14. Rasm

Yangi ochilgan sahifada sizga ro'yxatdan o'tish bandlarini to'ldirib chiqish taklif etiladi. Barcha bandlar to'ldirib bo'lingandan keyin dale tugmasini bosing.

Регистрация нового пользователя

Шаг 1 из 3

Логин: [Проверить](#)

Имя:

Фамилия:

Отчество(опционально):

[Далее](#)

2.15. Rasm

Регистрация нового пользователя

Шаг 2 из 3

Пароль:

Повторите пароль:

Электронная почта:

Код подтверждения:

[Подтвердить](#)

2.16. Rasm

Keyingi qadamlarda siz login, parol, e-mail va boshqa ma'lumotlarni kiriting. To'ldirilishi kerak bo'lgan barcha bandlar to'ldirilgandan keyin "Ruyxatdan o'tish" tugmasini bosining.

Ro'yxatdan o'tganingizdan keyin siz blok olib Ziyonet tarmog'ida sayt yaratishingiz mumkin. Buning uchun avtorizatsiyaga kirib login va parolingiz kiriting va "sayt olish" bo'limiga kiring. Qoidalar bilan tanishib chiqqaningizdan keyin "Roziman" tugmasini bosning. Shundan keyin sizning pochtangizga yuriqnoma xati keladi.

ЗиоНет

Авторизация на ID.UZ

Логин:

Пароль:

[Войти](#) [Зарегистрироваться](#)

2.17. Rasm



2.18. Rasm

Saytga ma'lumot joylash uchun ID.UZ dan qanday login parol bilan o'tgan bo'lsangiz shu login parol bilan avtorizatsiyadan o'tib, adminigizdan saytingizni boshqaruv paneliga o'ting.

"Foydalanuvchilar" paneli orqali hamkorlar ham taklif qilishingiz mumkin. "Tashqi ko'rinish" paneli orqali o'zingizga yoqqan blok ko'rinishini tablab olishingiz mumkin.


Авторизация на ID.UZ

Логин:


Сирли so'z:

[Enter](#)

2.19. Rasm



2.20. Rasm



Oldin chop etilgan "Maqola sarlavhasidagi so'zlar sonining cheklovi" maqolasining mantiqiy davomi sifatida bugun Word Press blogingizda chop qilinadigan har bir maqolaning eng kam soni miqdorini qanday qilib belgilash haqida yozib o'tmoqchimiz. Bu usuldan foydalanish blogingiz ko'rinishini tartibli qilish bilan birga, blogingizga mehmon maqola kiritmoqchi bo'lganlarning juda qisqa maqolalar kiritishini oldini oladi.

Buning uchun mana bu kodni functions.php fayli ichiga yozib qo'yishingiz lozim bo'ladi:

```
function minWord($content){
    global $post;
    $num = 100; //eng kam so'z soni
    $content = $post->post_content;
    if (str_word_count($content) < $num)
        wp_die( __('Xato: maqolangizda eng kam ishlatilishi mumkin
bo\'lgan so\'zlar sonidan kamroq so\'z ishlatilgan.') );
}
```

```
add_action('publish_post', 'minWord');
```

Bu kodni kiritganingizdan keyin blogingizda kimdur 100 dan kam so'zlik maqola kiritishga harakat qilsa xato yozuvi chiqadi.

Har bir maqola sarlavhasidagi so'zlar sonini cheklash tashvishi zimmangizga tushib qolsa, mazkur usul asqotadi.

Quyidagi kodni functions.php faylining ichiga yozsangiz kifoya.

```
function maxWord($title) {  
    global $post;  
    $title = $post->post_title;  
    if (str_word_count($title) >= 5 ) //maksimal so'zlar sonini o'rnatish  
        wp_die( __('Xatolik: maqolangiz sarlavhasidagi so\'zlar soni  
chegaradan oshgan.') );  
}  
add_action('publish_post', 'maxWord');  
Ftp orqali osongina yangilash.
```

Word Press

Agar Word Press platformangizni yangilayotganingizda har safar FTP xostingiz nomi, foydalanuvchi nomi va parolingizni kiritish ortiqcha vaqtingizni olishini xohlamasangiz, unda mazkur foydali usul sizga asqotishi mumkin. Bu usulda Word Pressga FTP ma'lumotlaringizni oldindan kiritib qo'yasiz.

wp-config.php faylingizga quyidagi kodlar qatorini qo'shib qo'ysangiz kifoya.

```
define('FTP_HOST', 'ftp.domen.uz'); // FTP xostingiz manzili (nomi).  
define('FTP_USER', 'FTP_foydalanuvchi_nomi');  
define('FTP_PASS', 'FTP_parolingiz');  
define('FTP_SSL', true); // Agar SSL ulanish aloqasidan foydalansangiz,  
unda true parametrini kiritasiz.
```

Word Press-yangiliklar tasmasini tashkil qilish.

(maqolada Freshy 1.0 by Juliaen De Luca mavzusi bilan foydalanilgan)

Asosiy sahifada faqat yangiliklar aks ettirilishi uchun maxsus bo'lim ochish kerak. Word Press boshqaruv paneliga kirib, Add New Category bo'limiga kirib frontpage bo'limi ochish zarur.

Bu maxsus bo'lim uchun bir necha xabar yarating. Amalni ishonch bilan qilish uchun yangi xabar qo'shilaytganda Categories bo'limida frontpage bo'limini belgilashni unitmang.

Endi bir umumiy bo'lim ham yaratib ko'yish kerak. Masalan book nomli bo'limni yarating va bu bo'limga bir necha xabarlar qo'shing.

Natijada sayt ochilsa frontpage va book bo'limlar xabarlar birgalikda sahifada chiqadi.

Lekin loyiha g'oyasi bo'yicha faqat frontpage xabarlar aks ettirilishi lozim. Bu amalni qilish uchun joriy mavzuni index.php faylini quyidagicha tahrirlash zarur.

Ko'rsatilgandek kerakli joyga quyidagi kodni kiriting:

```
<?php if(is_home()):?>  
<?php query_posts("category_name = 'frontpage' "); ?>  
<?php endif;?>
```

Odatda, asosiy sahifada, sayt yangiliklariga izohlar qoldirilmaydi, shuning uchun frontpage bo'limdagi barcha maqolalarni tahrirlab (Edit) Allow comments holatini o'chirish kerak.

Asosiy sahifada yangiliklar dan keyin izohlarga giperko'rsatkichni yoqatish uchun index.php –ga kerakli kodlarni (yog'on shift da ko'rsatilgan) qo'shish zarur.


```
<? if (single_cat_title("",false) != "frontpage"): ?>  
<?php the_tags('Tags: ', ' ', ' ', '<br />'); ?> Posted in <?php the_category(' ', ' ') ?> | <?php edit_post_link('Edit', ' ', ' | '); ?> <?php comments_popup_link('No Comments »', '1 Comment »', '% Comments »'); ?></p>  
<?endif;?>
```

Natijada yangiliklarimiz asosiy sahifada izohlarsiz aks ettiriladi:

Word Press shablonlarani ierarxiyasini buysunishi.

Shablonlar ierarxiyasi haqida batafsil

Turli ma'lumotlarni chiqarishda WP shablonlarini birinchilik navbatini sharhi.



2.23. Rasm

Asossiy sahifani aks ettirilishi:

1. home.php
2. index.php

Yozuvni alohida aks ettirilishi:

1. single.php
2. index.php

O'zgarma sahifani aks ettirilishi:

1. Yasalgan sahifa shabloni.
2. page.php
3. index.php

Bo'limlarni aks ettirilishi

1. category-id.php – Agar bo'lim ID –si 6 bo'lsa, unda WP quyidagiga murojaat qiladi category-6.php

2. category.php
3. archive.php
4. index.php

Teg –ni aks ettirilishi

1. tag-slug.php – Agar teg sometag bo'lsa, unda Word Press tag-sometag.php –ga murojaat qiladi

2. tag.php
3. archive.php
4. index.php

Muallif haqida ma'lumotni aks ettirilishi

1. author.php
2. archive.php
3. index.php

Sahifalarning sana bo'yicha aks ettirilishi

1. date.php
2. archive.php
3. index.php

Qidiruvni natijalarini aks ettirilishi


1. search.php
2. index.php

Topilmagan sahifani aks ettirilishi (404 sahifa xatosi)


1. 404.php
2. index.php

Ilovalarni aks ettirilishi.

1. image.php, video.php, audio.php, application.php
2. application.php
3. attachment.php
4. index.php



2.24. Rasm



2.25. Rasm


Word Press web olamida juda mashxur CMS (Content Management System) hisblanadi. Ushbu tizim tezlik bilan O'zbek foydalanuvchilari orasida ham ommaviylashib borayotgani hechkimga sir emas. Ushbu jarayonning oson va tez

amalg oshishiga albatta Word Press tizimini o'zbek tiliga tarjima qilayotganlarning o'rni katta. Xo'sh, Word Press'ni ona tilimizga tarjima qilayotgan hamda bu tizimning UzNet'da ommaviylashuvida ishtirok etayotganlar kimlar? Ushbu savolga javob izlab avvalombor Google qidiruv xizmatiga murojaat qilamiz. Ko'rib turganingizdek natija yomon emas.

Sharh qoldirishda foydalanish mumkin bo'lgan teglarni ko'rsatish comments.php faylida sharh qoldirish formasidan oldin quyidagi kodni kiriting:

Mumkin bo'lgan teglar: `<?php echo allowed_tags(); ?>`

Oxirida quyidagi grafik ko'rinishga ega bo'lgan saytga ega bo'lamiz:



HAYOT FAOLIYATI HAVFSIZLIGI

Kompyuter bilan ishlash texnika havfsizligi

🖥 Stol imkoni boricha katta bo'lishi lozim. Bu asosiy shartdir, chunki agar barcha moslamalarni o'rnatish uchun joy kamlik qilsa, ergonomika to'g'risida eslamasa ham bo'ladi. Stolning balandligi qorin o'rtasi bilan bir sathda bo'lishi, oyoqlar polda tekis turishi, bo'ksa pol bilan parallel bo'lishi, gavda esa tik holatda bo'lishi kerak.

🖥 Shuningdek, stol qancha og'ir bo'lsa, shuncha yaxshi. Stol qimirlamay, mahkam turishi kerak, chunki vibratsiya – texnika dushmandir. 2ta stolni to'g'ri burchak ostida bir-biriga yonma-yon qilib qo'ysangiz undan ham yaxshi, bunda ikkinchi stolni ishlayotgan qo'lingiz sichqonchadan bemalol foydalanishi uchun o'ng tomonga qo'ying. Stol va devor o'rtasi ochiq tursin. Yaxshisi komputer uchun maxsus stol olganingiz ma'qul.

Inson organizmiga komputer moslamalarining muntazam ravishdagi elektrostatik potentsiali ham zarar etkazadi. Elektr maydonining doimiy ta'siri ostida organizmida elektrogipnoz holati ro'y beradi. Natijada bosh og'rig'i, holdan toyish, bosh aylanishi kabi holatlar vujudga keladi.

Sintetikadan tayyorlangan matolar tabiiy mato va badan bilan ishqalaganida statik elektr tokini hosil qiladi, bu esa texnika uchun zararlidir va yerda o'rnatilgan detallarga tegib ketganingizda yoqimsiz tuyg'uni his qilasiz, shuning uchun polga tabiiy jundan to'qilgan palosni to'shab qo'ying, o'zingiz esa tabiiy matodan tikilgan kiyim-kechakda bo'ling.

Gipodinamiya – inson organizmi (qon aylanish, nafas olish, taomni hazm qilish, tayanch –harakat apparati) funksiyalari harakat qilish faolligining cheklanganligi, mushaklar qisqarishi kuchining pasayishi natijasida buzilishidir. Mehnatni avtomatlashtirish va mexanizasiyashtirish, kommunikasiya vositalari rolining o'sishi tufayli gipodinamiya kundan-kunga ommalashib bormoqda (accoopa.ru.dagi ensiklopediya). Bu muammo bevosita komputer bilan bog'liq emas. O'tirgan holda mehnat qiladigan odamlarning barchasi uchun gipodinamiyaga chalinish xavfi bor. Uzoq vaqt o'tirganda gavdaning har qanday

holati tayanch-harakat apparati uchun zararli bo'lib, bundan tashqari ichki a'zolarida va kapillarlarda qonning to'xtab qolishiga olib keladi. Ko'proq revmatik og'riqlar va varikoz paydo bo'ladi.

Bunday hollarning oldini olish uchun:

-  komputer bilan ishlash vaqtida tez-tez gavda holatini o'zgartirib turing;
-  miriqib kerishing;
-  stol tagida oyoqlar holatini o'zgartirib turishni unutmang;
-  telefonni o'zingizdan uzoqroq joyga qo'ying;
-  mabodo kofe, choy yoki boshqa ichimlik ichmoqchi bo'lsangiz, also komputer oldida ichmang, buning uchun qulay bo'lgan boshqa joyga o'ting;
-  vaqt-vaqti bilan turib, shunchaki sayr qilishga erinmang;
-  ish vaqtida deraza oynasi yoniga kelib, ko'chani tomosha qilib turishni odat qiling, bu har tomonlama foydalidir.
-  komputer bilan ishlashdan avval va undan keyin vaqtingizni faollikda o'tkazing – sayr qiling, sport o'yinlarini o'ynang, raqsga tushing, xullas, istaganingizni qiling, lekin harakat qiling!
-  Komputer bilan ishlash davridagi harakatsizlikni serharakatlik bilan almashtiring.

Bir xil harakatlarni bajaruvchi mushaklar guruhi uchun charchash zararlidir. Charchash bo'g'in va paylarning shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Komputer sichqonchasi va klaviatura bilan uzoq vaqt bir xil holatda ishlash natijasida qo'l paylari tendovaginiti ayniqsa ko'p uchraydi. Tendovaginit – (yangi lotinchadan tendo – pay) paylarning yallig'lanishidir (ko'proq qo'l panjalari, bilak, tizza). Zo'riqish, shikastlanish, panarisiya va komputer bilan uzoq vaqt muntazam ishlash natijasida bu kasallik rivojlanib boradi. Belgilari: paylar shishadi, og'riq paydo bo'ladi.

- klaviatura albatta tirsaklaringizdan pastroqda bo'lishi kerak;
- yelka va bilaklar orasidagi burchak 121 darajadan kam bo'lmasligi kerak;
- uzoq vaqt ishlayotganingizda kaftlaringizning ichki tomonlari tayanchga ega bo'lishi kerak;

- qo'llaringiz pastga osilgan holda bo'lishi mumkin emas, kursining qo'l uchun suyanichlariga qo'yib o'tiring;
- boshingizni oldinga egib o'tiring, displey ekranini shunday joylashtiring-ki, sizning nigohingiz ozgina pastroqda bo'lsin;
- stul yoki kursi suyanchig'iga suyanib o'tiring.

AQSH mehnat statistikasi Byurosining ma'lumotlariga ko'ra, 1981-yilda tayanch-harakat apparatining yuqori qismi, yani qo'l-panja kasalliklari kasbiy kasalliklar umumiy sonining atigi 18% ni tashkil etgan. Lekin 80-yillar davomida, ya'ni komputerlashtirish g'oyat tez sur'atlarda o'sib borgan 10 yil ichida, bu kasallik shu qadar ko'payib ketdi-ki, 1989-yilda butun kasbiy patologiya strukturasining 52 % ini tashkil etdi. Bir necha ming AQSH aloqa xodimlari uyushmasi a'zolarining salomatligini o'rganib borish natijasida ularning 20% ga yaqini surunkali ravishda kasbiy qo'l-panja kasalliklaridan aziyat chekishlari ma'lum bo'ldi. Amerika Qo'shma Shatlarining bir qator kompaniyalari tendovaginit, ligamentit (karpal kanal sindromi), shuningdek, qo'llarning muntazam ravishda og'rishigina emas.balki mehnat qobiliyatini yo'qotishgacha olib keladigan boshqa paylar yallig'lanishi kasalliklariga duchor bo'lgan bemorlarga tibbiy yordam ko'rsatish maqsadida bir necha million dollar zarar ko'rmoqda'',(Gun G.E.–komputer:Sog'likni saqlash yo'llari, Moskva. 2002-y).

Bu komputer bilan ishlashda uchraydigan zararli faktordir. “Komputer texnikasining asosiy kamchiligi- nur tarqatishdir. Nur tarqatishning kattagina qismi monitorga to'g'ri keladi, chunki monitor har tomonga elektromagnit va elektrostatik maydon, ekrandan esa radiatsiya va ultrabinafsha nurlarini tarqatadi. Komputerdan tashqari, lazerli printer, nusxa ko'chirish apparatlari, ya'ni ichki qismi yuqori kuchlanishga ega bo'lgan texnikalardan ham nur tarqaladi. Bundan tashqari , toner-kartrij ichidagi tarkibida og'ir metall bo'lgan kukun ham g'oyat xavflidir. Shuningdek, uzoq vaqt komputer oldida ishlash ko'z uchun nihoyatda zararlidir.

Komputer texnikasidan taralayotgan nur inson organizmiga qanday zarar etkazishi mumkin? Avvalambor, markaziy nerv sistemasiga juda katta ziyon

etkaziladi. Bunda ayniqsa bolalar aziyat chekadilar. Kishi tez-tez asabiylashadigan bo'lib qoladi, diqqatini bir joyga jamlash qiyin kechadi, stresslarga berilish darajasi oshadi. Yurak- tomir sistemasi va yuqori nafas olish yo'llari kasalliklari vujudga keladi, immunitet pasayib ketadi.

Lekin quyidagi maslahatlarga amal qilsangiz, bu dardlarni chetlab o'tishingiz mumkin:

- ☐ Monitordan 40-50 sm masofada bo'ling;
- ☐ Sifatli himoyasi bo'lgan yaxshi monitor sotib oling;
- ☐ Monitoringizdagi tasvir yetarli darajada aniq bo'lsin;
- ☐ Tez-tez nam latta bilan komputerni artib turing, chunki chang, ayniqsa monitordagi chang nurni o'zida to'plash qobiliyatiga ega;
- ☐ Havo ionizatorlaridan foydalaning.

Rossiya va chet el olimlarining kupsonli izlanishlari shuni isbotladki, insonning ekran oldidagi asosiy xavfsizligi, displeyning vizual parametrlarini tugri urnatmasligiga va ish urnini etarli darajada yoritmaganlikga boglik bular ekan. Displey bilan ishlash shuni kursatdiki-yarkost va osveshennostni notugri tanlash, kontrastnost va rang znaklarini va fonni uygunmasligi, ekrandagi shu'la, tasvirning lippilashi va kimillashi; kurish kobiliyatini tolikishiga, bosh ogrishiga, fizologik va psixalogik zurikishlarga, kurish kobiliyatining pasayishiga olib kelar ekan. Bu xolatlar asosan soatlab kompyuter uynaydigan bolalarda tez seziladi.

Monitor bilan ishlashda ergonomik va emission faktorlarning inson sogligiga kursatadigan ta'siri urtasidagi bogliklik jadvali.

	Ko'z kasalligi va ko'rish qobiliyatini bo'zishiga	Suyak-tuqima sestimasining bo'zishiga	Teri kasalliklariga	Stress xolatiga tushishga	Xomiladorlikning noxush xolatlariga
Tasvirning lippillashi	+	+	-	-	?
Rangning yaqqoligi	+	+	-	-	-
Sh'ula va qaytuvchi nurlar	+	+	-	+	-
UB nurlanish	+	-	?	?	?
Elektro Statik maydon	+	-	+	?	?
Elektro magnet maydon	?	-	-	?	?
Rentgin nurlanish	?	-	-	-	-

“Ish joyingizni tashkil etishga alohida ahamiyat bering: monitorgacha bo'lgan masofa 40-50 smdan kam bo'lmasligi; 2ta ishlayotgan komputer orasidagi masofa 1 metrdan kam bo'lmasligi shart, aks holda ulardan chiqayotgan magnit maydonlari birlashib, nur taratishni kuchaytiradi. Nur kamroq taralishi va ko'zlarga yuk kamroq tushishi uchun monitordagi tasvir ravshanligi minimal darajada bo'lishi kerak. 45 daqiqa davomida komputerda ishlang, 15 daqiqa dam oling, xonani tez-tez shamollatib turing. Ish joyingizni to'g'ri yoritish yodingizdan chiqmasin. Ekranga nurlar tushmasligi uchun yorug'lik chap tomondan tushishi kerak. Texnika xavfsizligi qoidalariga qat'iy amal qiling. Umuman, agar o'z xavfsizligingiz va sog'lingiz haqida qayg'ursangiz, o'zingizga g'amxo'rlikni sifatli texnika sotib olishdan boshlang. Yaxshi monitorlarda turli yo'nalishda nur taralishini kamaytirish maqsadida ekran usti va korpus ichi himoya qoplamasi bilan qoplanadi. Bunday monitorlarda TSO logotipi va Low radiation (past nur taratilishi) degan yozuvlar bo'ladi. TSO himoyasi standartlari o'z klassifikatsiyaga

ega:92-elektromagnit nur taralishidan himoya; 95-monitor korpusi himoyasi va uni tayyorlashda tarkibida toksik moddalar bo'lmagan plastmassadan foydalanish; 99-avvalgilari qo'shimcha tarzda kelgusida texnikani utilizatsiya qilish imkoniyati. Tabiiyki, bu himoya qoplamalarining barchasi nur taratilishini to'liq to'xtata olmaydi, lekin ma'lum darajada kamaytiradi. Darvoqe, zamonaviy suyuq kristalli monitorlarning nur taratishi minimal darajada, ekranlarning antiblokli himoyalari esa ko'zni asrashga yordam beradi. Himoya qoplamalarida iqtisod qilish - komputer texnikalari narxini arzonlashtirish usullaridan biri ekanligi bejiz emas” Aleksandr Kirsanov, “Vobis” servis markazi rahbari. Ergonomika.

Kaktusning nurlarni yutish xususiyatiga egaligi haqidagi afsonalar 80-yillarning oxirida, matbuotda Meksika sahrolaridagi kaktuslarning o'rganilayotgani to'g'risidagi xabarlar berilgan vaqtida paydo bo'lgan. Haqiqatdan ham, ular tabiatda kuchli nur taratish sharoitida o'sadi. Ammo kaktuslarning turli xil nurlarni yutish xususiyatlari haqida ma'lumotlar haddan ziyod oshirib yuborilgan – nurlarni o'ziga yutish dozasi g'oyat kamdir, shuning uchun kaktus monitor uchun filtr vazifasini o'tay olmaydi. Yaxshisi sifatli monitor bilan ishlash, barcha qoidalarga amal qilish va sog'lom bo'lish ma'qul.

Kaktusning nurlarni yutish xususiyatiga egaligi haqidagi afsonalar 80-yillarning oxirida, matbuotda Meksika sahrolaridagi kaktuslarning o'rganilayotgani to'g'risidagi xabarlar berilgan vaqtida paydo bo'lgan. Haqiqatdan ham, ular tabiatda kuchli nur taratish sharoitida o'sadi. Ammo kaktuslarning turli xil nurlarni yutish xususiyatlari haqida ma'lumotlar haddan ziyod oshirib yuborilgan – nurlarni o'ziga yutish dozasi g'oyat kamdir, shuning uchun kaktus monitor uchun filtr vazifasini o'tay olmaydi. Yaxshisi sifatli monitor bilan ishlash, barcha qoidalarga amal qilish va sog'lom bo'lish ma'qul.

- yorug'lik nurlarining tinimsiz harakatlarini kuzatar ekan, ko'zlar toliqadi;
- biz odatda bir daqiqada 20 marta kiprik qoqamiz. Bunda ko'z yoshlarini ishlab chiqaruvchi bezlar shohpardani namlaydi. Ekranga tikilib o'tirganimizda esa 3 marta kamroq kiprik qoqamiz. Ko'zlar “quriydi”,

achishadi. Mutaxassislar ko'z shohpardasini sun'iy ravishda namlab, ko'zlarga yordam berishini maslahat beradilar”;

- Ko'z va ob'ekt orasidagi optimal masofa 33 santimetrni tashkil etadi. Biroq komputer ekrani odatda 50 santimetrdan ortiq masofada bo'ladi, bu esa qo'shimcha zo'riqishga olib keladi, natijada ko'zlar uzoqni yaxshi ko'rolmaydigan bo'lib qoladi;
- Siz nur taratayotgan nuqtalarga tikilasiz – oxir-oqibat ko'zlaringiz zo'riqadi;
- Vaqt faktori: kamdan-kam inson 8-9 soat davomida kitob mutolaa qiladi. Komputer bilan ishlaganda esa bu odatiy hol hisoblanadi. Natijada ko'zlar zo'riqadi.

Ba'zi odamlarda ekran oldida to'xtovsiz 2 soat davomida ishlaganlaridan so'ng, ko'pchilikda 4 soat, deyarli barchada 6 soatdan so'ng komputer ko'rish Sindromi (Computer Vision Syndrome) CVS sindromi paydo bo'ladi. Olimlar komputer ekrani oldida uzoq vaqt ishlash natijasida CVA sindromi vujudga kelishidan tashqari ko'rish qobiliyati pasayishini (yoki ilgari ham ko'rish qobiliyati past bo'lganlariniki yanada pasayib ketishi) ham ta'kidlaydilar. Ayniqsa, komputer grafikasi bilan shug'ullanish davrida ko'rish qobiliyati vaqtincha pasayadi. Tadqiqodchi olimlarning xulosasiga ko'ra, insonning ko'rish qobiliyati komputerdagi tasvir bilan ishlash uchun moslashmagan. Monitoringiz ekranidagi tasvirlarning alohida belgilarini aytib o'taylik:

- u o'zidan nur taratadi, tasvir aks etmaydi;
- kontrastlik past, yoritilgan xona uni yanada pasaytiradi;
- tasvir to'xtovsiz emas, diskret nuqta-piksellardan iborat;
- tasvir lipillaydi, ya'ni nuqtalar ma'lum bir chastotada yonadi va o'chadi;
- aniq chegarasi yo'q, chunki piksel asta-sekinlik bilan fonga o'tib ketadi.

Monitor oldida bir necha soat o'tirib ishlagandayoq ko'zlar charchar, qizarib ketar va yoshlanar edi. So'ngra boshda og'riq paydo bo'lar edi. Ko'zlari uzoqni ko'ra olmaydigan, astigmatizmi bor, yaqinni ko'ra olmaydigan xodimlarning ko'rish qobiliyati keskin pasayib ketdi, ular tez-tez ko'zoynaklarini almashtirar, so'ngra asta-sekin nogironlarga aylanib borar edilar. Diqqat: Ko'z xirurglari

bugungi kunda ham zamonaviy komputerlar yillar davomida muvofiqlashtirilgan ekanligiga qaramay, ko'zlari operatsiya qilingan odamlarga 2-3 oy davomida komputer bilan ishlashni ta'qiqlaydilar. Ko'zlarning haddan ziyod zo'riqishi operatsiya qilingan ko'zga salbiy ta'sir qilishi mumkin.

Manba: www.medlinks.ru.

- 1.Ko'zlar uchun tinchlantiruvchi kompresslar qilishingiz mumkin. Xom kartoshkani yupqa parrak-parrak qilib kesing va ko'zlaringizni yumib, qovoqlaringizga qo'ying. O'zingizni bo'sh tuting. 5 daqiqadan so'ng kompressni olib tashlang.
- 2.Ko'z toliqishidan oson qutulish usuli(kosmetikadan foydalanmaydiganlar uchun).
Sovuq suvga ko'zingizni bir necha marta yuvib tashlang. Barmoqlaringizni yumuq ko'zlaringiz ustiga qo'yib, bir necha daqiqa o'tiring, hech narsani o'ylamaslikka harakat qiling. Har kuni achchiq choy damlamasidan kompress qilish ham ko'zlar uchun juda foydalidir. Ko'zlar dam olibgina qolmay, yaltiray boshlaydi, ko'z atrofidagi mayda ajinlaringiz esa tekislanadi.
- Zo'riqish tufayli kam kiprik qoqayotgan bo'lsangiz, har 5 soniya ongli ravishda ko'zlaringizni pirpiratib turing. Bunda ko'z shohpardasi namlanib, halok bo'lgan to'qimalardan forig' bo'libgina qolmay, balki ko'z olmalarini ham massaj qiladi. Bu esa juda foydalidir. Bundan tashqari, ko'z olmalarini barmoqlar bilan uqalash mumkin.Avval tashqi burchakdan ichkariga qarab, so'ngra aylanma harakatlar bilan ichkaridan tashqariga qarab ohista massaj qiling. Ko'zlaringiz yumuq bo'lsin. Ko'zlarni yumib, aylanma harakatlar qilish ham g'oyat foydalidir. Mushaklar akkomodasiyasi (ko'z gavharining ravshanlashishi) uchun mashq: deraza oynasi oldiga turing, navbat bilan deraza romidagi bir nuqtaga va uzoqqa nigohingizni qarating.
- Komputer "sichqonga"sining uncha sezilarli bo'lmagan harakatlari klaviaturadagi bakteriyalar va monitordan taralayotgan nurlardan ko'ra ancha xavfliroqdir.

Bugungi kunda komputer oldida uzdu-kun o'tirib ishlash ko'pchilik uchun odatdagi mashg'ulot bo'lib qolgan. Odamlar monitordan taralayotgan nurlardan o'zlarini ehtiyotlashga urinadilar, qulayroq holatni tanlashga intiladilar, bakteriyalardan xavfsirab, klaviaturani tozalaydilar. Lekin sichqonchaning sezilar-sezilmas harakatlari ba'zan ancha xavfliroqdir. Aynan shu harakatlar "kaft usti suyagi sindromi" paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Bunday kasallikka chalinganlarning soni yil sayin ortib bormoqda.

Kaft usti suyagi sindromi-tez-tez takrorlanib turadigan qo'l harakatlari natijasida kaft usti suyagi kanalidagi nerv tolasining qisilib qolishidir. Qoida bo'yicha, musiqachilar va harakatdagi mexanizmlar bilan muntazam ishlaydiganlar bu kasallikka chalinadilar. Asosiy belgilar- barmoqlarning achishishi, uvishib qolishi, yengil og'riqning paydo bo'lishi.

- Birinchi bor bu kasallik 90-yillarning boshida AQSHda qayd etilgan bo'lib, u vaqtlarda kamdan-kam uchrar edi. Odatda uni kortikosteroid in'eksiyalari bilan davolaydilar, lekin ba'zan qisilib qolgan nerv tolasini bo'shatish uchun jarrohlik operatsiyasi qilinadi. So'nggi yillarda kaft usti suyagi sindromi kasalligiga muhtalo bo'lganlar sonining bir necha marotaba ortib ketishi fransuz shifokorlarini tashvishga solmoqda. Bemorlarning ko'pini komputer bilan ishlaydiganlar tashkil etadi. Agar bundan 10 yil muqaddam jarrohlar haftasiga 1-2 ta kaft usti suyagi operatsiyasini o'tkazgan bo'lsalar bugungi kunda bunday operatsiyalarning soni haftasiga 20ga yaqin, yiliga 80000tagacha boradi. Bu sindrom paydo bo'lishiga sabab klaviatura va sichqoncha bilan ishlayotganda qo'lning noto'g'ri holatda bo'lishidir. Gap shundaki, sichqoncha bilan ishlash jarayonida kaft usti suyagi tinmay harakatda bo'lib unga doimo statistik yuk tushib turadi. Bundan tashqari, stol haddan ziyod past yoki baland bo'lsa, kaft usti suyagi tirsak-bilak suyagiga nisbatan ko'p harakat qiladi. Bunda komputer sichqonchasi bilan aniq harakatlar qilinmay, jismoniy mehnat qilishda ishlashi kerak bo'lgan mushaklar guruhi harakatga keladi.

- -kaft usti suyagingiz va bilagingizni muntazam ravishda har tomonga harakatlantirsangiz, tirsagingiz 90 darajadan ortiq burchak ustida bukilgan bo'lsa;
- -bir xil holatda uzoq vaqt o'tirib ishlasangiz sizda kasallikka chalinish xavfi bor.
- - sichqoncha va klaviatura bilan ishlayotganingizda qo'lingizning tirsak qismidagi bukilish burchagi to'g'ri bo'lishi kerak;
- - qo'llaringizni stol burchagiga qo'ymang, qo'llar stolda bemalol joylashishi zarur;
- - klaviaturani qattiq bosmang;
- - qo'llaringiz dam olishi uchun, qo'llar uchun suyanchig'i bor kursida o'tiring, muntazam ravishda barmoqlar uchun mashq qilib turing;qo'llarni silkiting;
- - barmoqlaringiz bilan stolni o'ng tomondan chap tomoniga qarata cherting.

Yaxshilab o'tirib oling, gavyangizni tik tuting, ko'zlaringizni ochib, nigohingizni to'g'riga qarating;Ko'z olmasining harakatlarida ishtirok etadigan mushaklar orom olishi uchun:Ko'zlaringiz bilan chapga-to'g'riga to'xtamay harakat qiling.Ko'zlaringiz aylana bo'ylab chapga va o'ngga avval tez, keyin sekinroq 1-10 marotaba harakat qilsin. Fokus masofasini o'zgartirish:Avval burun uchiga, so'ngra uzoqqa qarang. O'zingizdan 30 sm masofada bo'lgan barmoq yoki qalam uchiga, keyin uzoqqa qarang.

Ko'zingizni qattiq yuming, so'ngra bir necha marta takrorlang. Ko'zingizni qattiq yuming, so'ngra bir necha marta ko'zlaringizni pirillating. Ko'rsatkich va o'rta barmoqlaringiz bilan qovoqlaringizni burundan chakkalaringizga qaratib mayin silang, so'ngra kaftlaringizni bir-biriga ishqalatib, ularni yumuq ko'zlaringiz ustiga ohista qo'ying (1 daqiqa), bunda ko'zlaringiz to'la yumilishi, ular yorug'likni sezmasliklari kerak. O'zingizni qorongi xonada o'tirganday his qiling.

Zamonaviy komputerlarda ko'rish qobiliyati past bo'lgan odamlar ishlashi uchun barcha sharoitlar mavjud. Bu mashq o'tirib, 30 soniya davomida bajariladi.

Xoch tasviri tushirilgan o'yin kartasini devorga ko'zlaringiz qarshisida turadigan qilib mahkamlang(a-rasm), devorgacha bo'lgan masofa 30 smni tashkil etishi kerak.

Chap qo'lingizga qalamni olib, to'g'riga cho'zing, nigohingizni qalam uchiga qaratganingizda, orqa planda siz 2ta kartani "ko'rishingiz" kerak. 2 marta nafas olib, nafas chiqaring, 1 marta kiprik qoqing. Endi kartaga tikiling. Bu safar siz 2ta qalamni "ko'rasiz". 2 marta nafas oling va nafas chiqaring. Kiprik qoqish esingizdan chiqmasin.

Nafas olayotganingizda boshingiz bilan asta-sekin aylana bo'ylab chap tomonga harakat qiling. Yelkalarigizni bo'sh qo'ying (-b rasm). Nafas chiqarayotganingizda boshingiz bilan o'ng tomonga va pastga harakat qiling, so'ngra boshlang'ich holatga qayting. Bu mashqni 2 marta takrorlang, so'ng harakat yo'nalishini o'zgartiring va mashqni 3 marta takrorlang

Maqsad-ensa qismlarining akupressur nuqtalarini yaxshilash va bo'yin mushaklarining taranglashuvini yo'qotish. Bu mashq o'tirgan holda 40 soniya davomida (har bir tomonga) bajariladi. Akupressur nuqtalar – kuchli sezuvchanlikka ega qismlardir. Ensa akupressur nuqtalari umurtqa pog'onasining ikkala tomoni va bosh suyakning pastki qismida joylashgan bo'yin orqa tomoni mushaklari kesishgan joyda joylashgan (a rasm).

Nafas ola turib ikki barmog'ingiz uchlari bilan ohista akupressur nuqtalarni bosing. Bosimni kamaytirmay, 10 soniya davomida o'ng va chap tomonga aylana bo'ylab asta-sekin harakat qiling (b rasm) Bosimni kamaytiring, nafas chiqaring.

Maqsad-ensa qismlarining akupressur nuqtalarini yaxshilash va bo'yin mushaklarining taranglashuvini yo'qotish. Bu mashq o'tirgan holda 40 soniya davomida (har bir tomonga) bajariladi. Akupressur nuqtalar – kuchli sezuvchanlikka ega qismlardir.

Ensa akupressur nuqtalari umurtqa pog'onasining ikkala tomoni va bosh suyakning pastki qismida joylashgan bo'yin orqa tomoni mushaklari kesishgan joyda joylashgan (a rasm). Nafas ola turib ikki barmog'ingiz uchlari bilan ohista akupressur nuqtalarni bosing. Bosimni kamaytirmay, 10 soniya davomida o'ng va

chap tomonga aylana bo'ylab asta-sekin harakat qiling (b rasm) Bosimni kamaytiring, nafas chiqaring.

Mashqlar (1/3)

Yaqin nuqtadan uzoqqa tikilish


Bu mashq o'tirib, 30 soniya davomida bajariladi. Xoch tasviri tushirilgan o'yin kartasini devorga ko'zlaringiz qarshisida turadigan qilib mahkamlang(a-rasm), devorgacha bo'lgan masofa 30 smni tashkil etishi kerak. Chap qo'lingizga qalamni olib, to'g'riga cho'zing, nigohingizni qalam uchiga qaratganingizda, orqa planda siz 2ta kartani "ko'rishingiz" kerak.

2 marta nafas olib, nafas chiqaring, 1 marta kiprik qoqing. Endi kartaga tikiling. Bu safar siz 2ta qalamni "ko'rasiz". 2 marta nafas oling va nafas chiqaring. Kiprik qoqish esingizdan chiqmasin.

Nafas olayotganingizda boshingiz bilan asta-sekin aylana bo'ylab chap tomonga harakat qiling.


Yelkalarigizni bo'sh qo'ying (-b rasm). Nafas chiqarayotganingizda boshingiz bilan o'ng tomonga va pastga harakat qiling, so'ngra boshlang'ich holatga qayting. Bu mashqni 2 marta takrorlang, so'ng harakat yo'nalishini o'zgartiring va mashqni 3 marta takrorlang.

Maqsad-ensa qismlarining akupressur nuqtalarini yaxshilash va bo'yin mushaklarining taranglashuvini yo'qotish. Bu mashq o'tirgan holda 40 soniya davomida (har bir tomonga) bajariladi. Akupressur nuqtalar – kuchli sezuvchanlikka ega qismlardir. Ensa akupressur nuqtalari umurtqa pog'onasining ikkala tomoni va bosh suyakning pastki qismida joylashgan bo'yin orqa tomoni mushaklari kesishgan joyda joylashgan (a rasm) Nafas ola turib ikki barmog'ingiz uchlari bilan ohista akupressur nuqtalarni bosing. Bosimni kamaytirmay, 10 soniya davomida o'ng va chap tomonga aylana bo'ylab asta-sekin harakat qiling (b rasm) Bosimni kamaytiring, nafas chiqaring.



Burun tekshiklaridan 2 enlik masofada joylashib, ko'z qorachilari bo'ylab vertikal chiziqda joylashgan akupressur nuqtalar ustiga ko'rsatkich barmoqlaringiz uchini qo'ying va 1 soniya davomida qattiq bosib turing, so'ng 1 soniyaga ta'sirni kamaytiring (qattiq bosish deganiga og'riq paydo bo'lishi ko'zda tutiladi, barmoqni olganda og'riq shu zahotiyoq to'xtaydi).

Nuqtalarni bosayotganda nafas oling, barmoqlaringizni olganda-nafas chiqaring (a rasm) Ko'rsatkich barmoqlaringizni bukib, ularni yon tomoni bilan ikki ko'zingiz orasiga qo'ying (ko'z olmalarini zinhor bosa ko'rmang!) Qattiq bosing va barmoqlaringiz bilan ko'zning yuqori qismining ichki tomoni bo'ylab burundan chakkalaringizga qarata harakat qiling. Barmoqlar bilan bosib turganingizda nafas oling, bosishni to'xtaganingizda nafas chiqaring (-b rasm). Ko'zlar uchun mashqlarni bajarayotganingizda ular yumuq bo'lishi kerak.



Yuqoridagi Kembrij instituti tomonidan tavsiya etilgan mashqlar kompleksi ko'zlaringizning ko'rish imkoniyatlarini komputer bilan uzoq vaqt ishlash uchun zarur bo'lgan darajagacha ko'tarishga yordam beradi.

Barcha mashqlarni bajarish uchun vaqt 20 daqiqadan oshmasligi kerak. Mashqlarni to'liq har kuni yoki bosqichma-bosqich, kuniga 2-3tadan 3-4 kun

davomida bajarib. Mashqlarni bema'lol, ortiqcha zo'riqishsiz bajarish uchun o'zingizga istagan qulay chastota va davom etish vaqtini tanlab oling.

Shundan keyin bu mashqlarni haftasiga 2-3 marotaba takrorlab turing. Mashqlarni bajarish vaqtida gavyangizni to'g'ri tutishni hamda bir maromda yengil nafas olishni unutmay, ko'zlaringizni tez-tez pirillatib turing, barcha tana a'zolaringizni bo'sh qo'ying, harakatlaringiz mayin, ohista bo'lishi va tanangizga aqliy faoliyatdan dam olishga yordam berishi kerak. Bu bo'limni yaratishda G.G.Demirchoglaning "Ko'z Salomatligi maktabi" kitobidan foydalanildi SP. "Komplekt", 1996-262 bet (Shifobaxsh kuchlar seriyasidan) Manba: eyecenter.com.

Agar siz yuqoridagi qoidalarga amal qilmasangiz, quyidagi kasalliklarga chalinishingiz xavfi bor;

- ko'rish qobiliyatining pasayishi;
- astigmatizm;
- yorug'likdan qo'rqish;
- umurtqa pog'onasining istagan qismi osteoxondrozi;
- gemorroy;
- varikoz;
- kichik to's a'zolari xastaliklari;
- qo'llarning pay xaltalari xastaliklari;
- yurak-tomir xastaliklari

Va eng asosiysi-ishlash uchun doimo qulay sharoit bo'lsin.

Ish kuni oxiriga kelib tanangizda zo'riqish va charchoq his etmasangiz, demak, ergonomika yetarli darajada deb hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mustaqil yurtimizning barcha sohalarida Respublikamiz iqtisodiyoti jadal ravishda rivojlanib bormoqda. Sanoat, qurilish, ta'lim, iqtisodiyot va qishloq xo'jaligi kabi qator tarmoqlarda yirik inshootlar qurilib ishga tushirilmoqda. Respublikamiz iqtisodiyatida kichik beznes va tadbirkorlikka katta e'tibor beriladi. Mamalakatimizda yanada rivoj toptirishda tadbirkorlarga bo'lgan extiyoj juda katta, aksariyat tashkilot korxona va muassasalarda informasion texnologiyalar yo'nalishlari sohasida tengdoshlarimish ishlab kelishmoqda.

Bunday ulkan axborot manbalarini yaratishni amalga oshirish katta hajmdagi loyihalash va dasturlash ishlarini bajarishni talab qiladi. Ushbu vazifalarni o'z vaqtida, xalqaro standartlar talabida amalga oshirishda avtomatlashtirilgan tizimlarida jumladan Web sayt yaratuvchi vizual loyihalash ilovalari yordamida amalga oshirish mumkin.

Malakaviy bitiruv ishida "Orginal" savdo supermarketining dinamik web saytini yaratish mavzusida ish olib borib web sayt yaratuvchi dasturiy vositalardan foydalilgan xolda "Orginal" savdo supermarketining web saytini yaratdik.

Bitiruv malaraviy ishi kirish qismi va 2 ta bobdan iborat bo'lib bu boblarda quyidagilar yoritilib berildi:

I. Bob. Web saytlar va sahifalar

- 1.1. Web sayt, web sahifa va web server tushunchalari.
- 1.2. Web-sahifalar yaratishda HTML teglari.
- 1.3. Web-sahifalarida matn va grafikani taqdim etish.

II. Bob. «Orginal» savdo supermarketining web saytini yaratish

- 2.1. «Orginal» savdo supermarketining web sahifasi ko'rinishini taxrir qilish.
- 2.2. Web sayt yaratishda Macromedia Dreamweaver imkoniyatlaridan foydalanish.
- 2.3. Ziyonet tarmog'idan Word Pressda sayt yaratish va ma'lumotlar joylashtirish.

Bundan tashqari bitiruv malakaviy ishida hayot faoliyati hafsizligi paragrifi, foydalanilgan adabiyot ro'yxati va Internet resurslar ro'yxati hamda olingan natijalar (web sahifalarning ayrimlarining tasviri) ilova qilindi.

Bitiruv malakaviy ishini ob`ekti bo`lgan savdo dukoni web saytni tayyorlashda HTML teglari va operatorlaridan, Denwer va Macromedia Dreamweaver dasturiy vositasidan hamda Ziyonet tarmog`idagi Word Press dan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishimni mavzusiga kelsak, tijorat korxonalarini web saytni yaratish va uni amaliyotda joriy etish har doim dolzarb mavzuligicha qoladi.

Takliflarim shundan iboratki, kelgisida BMI ishi bajaradigan talabalar viloyatimizdagi har bir tadbirkor va beznesmenlarning ma`lumoti internetda joylashishi va ularning web saytlarini yaratishsa bu iqtisodiy tomondan filialga ham, talaba yoki bitiruvchiga ham va beznesmen va tadbirkorlarga ham foyda keltiradi.


FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR



1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Замонавий ахборот-коммуникация технологияларини янада жорий этиш ва ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори № ПК-1730, 21.03.2012й.
2. I.A.Karimov. “Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi”. T.- 2009- y.
3. I.A.Karimov. “Yuksak ma'naviyat engilmas kuch”. T.- 2008-y.
4. O'zbekiston Respublikasi VM ning qarori "2010 yilgacha pochta aloqasi shoxobchalarini zamonaviylashtirish, axborot-kommunikasiya texnologiyalari negizida xizmatlarning yangi turlarini joriy etish va rivojlantirish dasturi to'g'risida" 2005 yil 19 may, 128-son. T. 2005y.
5. “Axborot texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida”. O'zbekiston Respublikasi VMning Qarori. “Xalq so'zi”. 3 iyun, 2005 y.
6. S.S.Qosimov “Axborot texnologiyalari”.-Toshkent.: “Aloqachi”,2006.-370b.
7. A.Oripov “Informatika, information texnologiya” Toshkent 2006
8. A.Mirrahimov “Internet va undan foydalanish asoslari”, T.:2001 yil.
9. S.S.G'ulomov va boshqalar. “Axborot texnologiyalari va tizimlari”. T.:, 2000y.
10. S.S.G'ulomov va boshqalar. “Iqtisodiy informatika”. T.:, 1999.
11. Sh.Nazirov, R.Qobilov “Kompyuter va ofis jihozlaridan foydalanish” T. 2007y.
12. Э.Шафран Создание Web-страниц: самоучитель-СПб:Питер,2001.-320с.
13. Игорь Шапошников HTML 4 «БХВ-Петербург» 2002.
14. Ш.Пауэрс Динамический HTML "Лори", 1999. 384 с.
15. А.Вайк, Дж.Джиллиам JavaScript: Полное руководство: Перевод с английского."Вильямс", 2004. 719 с.
16. Д.Лещев Создание интерактивного web-сайта: Учебный курс. "Питер", 2003.В.Дронов JavaScript в Web-дизайне. СПб-Петербург, 2002. 880 с.
18. А.Ю.Гаевский, В.А.Романовский Самоучитель по созданию Web-страниц
19. Матросов, Сергеев, Чаунин. HTML 4.0 в подлиннике. ВHV-СПб, 2000
20. Т.Стауфер. Создание веб-страниц. Самоучитель.—«Питер», Санкт-Петербург, 2003г.

Internet resurslari

1. <http://www.search.re.uz> - O'zbekistonning axborotlarni izlab topish tizimi.
2. <http://www.ictcouncil.gov.uz>- Kompyuterlashtirishni rivojlantirish bo'yicha Vazirlar Maxkamasi muvoffiq lashtiruvchi Kengashining sayti.
3. <http://ziyonet.uz>
4. www.google.uz
5. <http://www.uz>
6. <http://e-books.uz>
7. <http://tuit.uz>
8. <http://id.uz>
9. <http://www.intuit.ru>
10. <http://www.scriptic.ru>
11. <http://www.webacademy.com>
12. <http://www.pacificwebart.com>

ILOVALAR





**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA
KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLI**

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
QARSHI FILIALI**

**Bitiruv malakaviy ish bo'yicha rahbarning
TAQRIZI**

Talaba: Hakimov Eldor

Mavzu: Tijorat korxonalari va savdo do'koni dinamik web-saytini yaratish
("Orginal" supermarketi misolida)

Malakaviy ish hajmi: 76 bet

Yozma izoh qismi: 72 betdan iborat.

Chizma va grafiklar soni: 26 ta rasm, tasvirlar va 3 ta jadvaldan iborat.

Mavzuning dolzarbligi: Bugungi kunda axborot jarayonlarini globallashtirish imkoniyatlari avvalombor global tarmoq Internet bilan bog'lanmoqda. Ayniqsa bugungi kunda internetning ahamiyati oshib borayotgan bir davrda undan foydalanuvchi o'zining axborotga bo'lgan talabini qondiribgina qolmay, undagi faoliyatini tog'ri baholay olish masalasini yechish uchun Internet imkoniyatlarini, undan foydalanishni bilishi kerak bo'ladi.

Ixtiyoriy keng imkoniyatlarga ega paket universal yondashishga bog'liq. Masalan Dreamweaver, Denwer, HTML, PHP va boshqa dasturlarini ishlatishda mutaxassis undan ongli foydalanib chegirmalar qilishi mumkin: dasturni uning muammosiga rostlashi, dasturni modifikatsiyalash, yangilash, hisoblash vaqtini tejash va h.k. ni amalga oshirishi mumkin. Xuddi shuningdek Ziyonet tarmog'idagi WordPress ham internetda o'zining sayti bo'lishini xoxlaganlar uchun qulay imkoniyatdir.

Bitiruvchining umumtexnik va maxsus tayyorgarligi tavsifi: Kompuyter texnikasi va texnologiyalarini yaxshi o'zlashtirgan. Web texnologiyasi bo'yicha yaxshi nazariy va amaliy ko'nikmalarga ega. Informatika va axborot texnologiyalari shuningdek web texnologiyasi sohasida maxsus nazariy va amaliy tayyorgarligi talabga javob beradi.

Bitiruvchi talabaning mustaqil ishini bajarish layoqati, maxsus adabiyotlardan foydalanish qobiliyati va shaxsiy xususiyatlari: Talaba BMI ni bajarish jarayonida o'quv va maxsus adabiyotlardan foydalana olish, mavzuga tegishli Internet materiallarini izlab topish va undan foydalana olish qobiliyatiga ega ekanligini shuningdek maxsus mutaxassislik fanlaridan yaxshi bilimga ega ekanligini ko'rsatdi.

Malakaviy ishning ijobiy tomonlari: Bitiruv malakaviy ishida HTML teglaridan, PHP tilidan, Dreamweaver, Denwer, WordPress dasturiy vositalaridan va boshqa dasturiy vositalardan foydalanish imkoniyatlari keng yoritilgan hamda web sayt yaratish strukturasi keltirilgan. BMI da tijorat korxonalari, xususan supermarket sayti loyihasi yuqorida ko'rsatilgan texnologiyalar va dasturiy ilovalar yordamida yaratish yoritib berilgan.

Malakaviy ish bahosi: (maksimal ball - 100 ball) 80 ballga baholayman.

Malakaviy ish rahbari: _____ **B.Nosirov**

22 iyun 2015 yil.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA
KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLI**

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
QARSHI FILIALI**

Kompyuter injiniringi fakulteti “Informatika va axborot texnologiyalari” ta’lim
yo’nalishi bitiruvchisi Hakimov Eldorning bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Malakaviy ish mavzusi: Tijorat korxonalari va savdo do’koni dinamik web-saytni
yaratish (“Orginal” supermarketi misolida)

Malakaviy ish hajmi: 76 bet

a) Yozma izoh qismi: varaqlar soni: 72 betdan iborat.

6) Grafik qismi: chizmalar soni: 26 ta rasm, tasvirlar va 3 ta jadvaldan iborat.

Malakaviy ish mavzusining dolzarbligi va berilgan topshiriqqa mosligi:
Bitiruvchi talaba Hakimov Eldorning ishi bugungi kunda Internetning ahamiyati
oshib borayotgan bir davrda dolzarb ishlardan biri hisoblanadi. Bitiruvchining
ishini namunali baholash mumkin. Bitiruvchi talabaning Internet chegara bilmas
imkoniyatlaridan foydalanganligi, shuningdek har-bir tadbirkorni va ish
yurituvchilarni faoliyat yuritishlari uchun Internetning hamda web
texnologiyalarning imkoniyatlaridan oqilona foydalanish dolzarb masalalardan biri
hisoblanadi.

BMI tijorat korxonasi, ya’ni savdo dukoni dinamik web saytni yaratish bo’yicha
berilgan topshiriqlarga to’la mos keladi.

**Malakaviy ishning yozma va grafik materiallarining tarkibi va bajarilish
sifati:** BMI kirish, ikkita asosiy bob va ularda kamida ikkitadan paragriflar, hayot
faoliyati xavfsizligi, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan
iborat bo’lib, talab darajasida bajarilgan.

**Malakaviy ishda ilmiy manbalar, fan-texnika yutuqlari va ilg’or tajriba
natijalaridan foydalanilganligi:** Bitiruvchi talaba bitiruv malakaviy ishida
zamonaviy web texnologiyalarga oid ilmiy manbalardan, shu sohaga oid so’nggi
yangiliklar va natijalardan samarali foydalangan.

Malakaviy ishning texnik–iqtisodiy jihatdan asoslanganligi:

Bitiruv malakaviy ishi texnik-iqtisodiy jihatdan asoslangan, ya'ni Web sayt yaratish jarayonida maxsus visual dasturlash dasturiy ilovalardan foydalanish asoslab berilgan. Web texnologiyalarni loyihalash xarajatlarini kamaytirishga, loyiha sifatini oshirishga, vaqtni tejashga xizmat qilishi asoslangan.

Malakaviy ishning ijobiy tomonlari va amaliy ahamiyati:

Web texnologiyalar, web sahifalar va web sayt yaratishda foydalaniladigan texnologiyalar hamda dasturiy vositalar imkoniyatlari keng yoritilgan, ob'ektlarni hususan korxonalar web saytni yaratish algoritmi, HTML kodlari va dizaynlari keltirilgan.

Malakaviy ishdagi kamchiliklar:

Bitiruvchi Hakimov Eldorning ishida kamchiliklar ham bor, masalan u yaratgan saytda animatsion effiklardan kam foydalanilgan. Taklif sifatida maxsulotlarga Internet orqali buyurtma berish imkoniyatini yaratishni aytib o'tish mumkin.

Malakaviy bitiruv ishining bahosi (maksimal ball - 100 ball) va bitiruvchiga unga mos yo'nalish bo'yicha "Bakalavr darajasi" berilishi mumkinligi to'g'risida xulosa:

BMI Informatika va axborot texnologiyalari yo'nalishiga qo'yilgan talablarga to'liq javob beradi va bitiruv malakaviy ishini 78 ballga baholash mumkin.

Bitiruvchiga informatika va axborot texnologiyalari yo'nalishi bo'yicha bakalavr malakaviy darajasini berish mumkin.

Taqrizchi:

QarMII, A va AT kaferdasi

_____ **katta o'qituvchi Rajabov J.N.**

_____ **iyun 2015 yil**